

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Til va adabiyot o‘qitish metodikasi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

**URAZALIYEVA (PARPIYEVA) OYNURA**

***ADABIY TA‘LIMDA ABDULLA QAHHOR IJODINI  
O‘RGANISHGA YANGICHA  
YONDASHUV***

*522100 – filologiya*

*(o‘zbek filologiyasi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha  
Bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan*

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**



*Ish rahbari: katta o‘qituvchi  
SH.Hasanov*

Andijon – 2014 yil

“Himoyaga tavsiya etaman”  
ish rahbari:

katta o‘qituvchi Sh.Hasanov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

“Himoyaga qo‘yishga ruxsat beraman”  
kafedra mudiri:

f.f.n. L.Jalolova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

“Himoyaga tavsiya etaman”  
rasmiy taqrizchi:

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

“Davlat attestatsiya hay’atiga  
himoya qilish qilish uchun taqdim etaman”  
fakultet dekani:

f.f.d. D.Quronov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

## Mundarija

1. Kirish.....	5
2. Ishning umumiy tavsifi.....	8
3. Adabiy ta'limda yozuvchi ijodini o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari. Yozuvchi ijodini o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	14
4. Adabiy ta'limda Abdulla Qahhor ijodining o'rganilishi.....	19
6. Abdulla Qahhor asarlarini o'rganish orqali yangicha badiiy tafakkur hosil qilish. O'quvchilarni Abdulla Qahhor hikoyalari matni ustida ishlashga o'rgatish.....	23
7. Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishning innovatsion metodlari.....	33
8. Abdulla Qahhor asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'llari.....	70
9 Xulosa.....	74
10. Foydalanilgan adabiyotlar.....	78

**Kirish.** XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Adabiyot nadir?" maqolasida adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rniga baho berib, shunday yozadi: "Hech to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar... Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan qaralgan, majruh yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydurg'on buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur"<sup>1</sup>. Adib o'zining bu maqolasi orqali adabiyotning, adabiy ta'limning mazmunini, mohiyatini belgilab berganday.

Chindan ham, adabiyot inson sezimlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazib, o'quvchiga hayot falsafasidan saboq beradi: olam va odam murakkabliklarini idrok etish yo'llarini ko'rsatadi; o'quvchiga yashash sirlarini o'rgatadi, uning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashadi. Inson borliq qurshovida yashaydi. U olamning bitta bo'lagi. Yaratilgan ichida, borliqdagi mavjudodlar ichida eng azizi, mukarrami bu - INSONdir. Inson tafakkur qudrati, so'zlay olish imkoni bilan yanada qudratli va sharaflil sanaladi.

Inson o'z aqlu idroki bilan olamni inkishof etadi, uning sir-sinoatlarini echishga intiladi. Tafakkur til vositasida voqelanadi, yorqinlashadi. Demak, inson doimo so'zga ehtiyoj sezib yashaydi. Insonning borliq haqidagi tasavvurlarini boyitishda, uning olam hodisotlarini teran anglashi yo'lida adabiyot bemisl kuch-qudratga egadir. Adabiyotni anglash, idrok etish, so'z qudratidan bahra olish adabiy uquvni, zakovatni talab etadi.

Adabiy ta'lim asosini adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi. Komil shaxsni shakllantirish adabiyot o'qitishning bosh maqsadi. Bu umumiy tushuncha bo'lib, istiqbolni belgilaydi. Oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchini tayyorlash, bolalarni badiiy so'zdan ta'sirlanadigan, uning josibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o'qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o'ziga xulosa chiqarishga qobil, o'z qarashlarini og'zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o'qishni o'zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o'quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi.

Muhtaram Yurtboshimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu haqda shunday yozadilar: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni,

---

<sup>1</sup> Чўлпон. Адабиёт надир? –Т.:Чўлпон нашриёти. 1994, 6-8-бетлар.

mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘tib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”<sup>1</sup>.

Adabiy ta‘lim o‘quvchi dunyoqarashini shakllantiradi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi; oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishga o‘rgatadi. Badiiy asarlarni o‘rganish orqali o‘quvchining falsafiy qarashlari kamol topadi, mushohadalari teranlashadi. Hayot – katta maktab. Shunday bo‘lsa ham o‘quvchini ana shu hayotning butun murakkabliklariga sabot va matonat bilan chidashga, uning zalvorli sinovlarini yengib o‘tishga, eng qiyin damlarda ham o‘zini yo‘qotmay oldinga intilishiga o‘rgatadigan beminnat maslahatchi, samimiy do‘st – bu adabiyot, adabiy ta‘lim hisoblanadi.

“Maktabda adabiyotni so‘z san‘ati sifatida o‘qitish o‘quvchilarda uni emotsional qabul qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamol toptirishni taqozo etadi. O‘quvchida hayotni, hayotiy voqea-hodisalarni bilishga, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug‘ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo‘ladi. O‘qituvchi badiiy asarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda hosil bo‘lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni san‘at olamiga olib kiradi, o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda ularning badiiy didini o‘stiradi”<sup>1</sup>.

Insoniyat uchinchi ming yillikda yuksak taraqqiyot sari dadil odimlamoda. Uning tafakkuri, dunyoqarashi soatma-soat, daqiqama-daqiqa o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Har bir millat, xalq dunyo hamjimiya orasida o‘z o‘rni, nufuzi, obro‘-e‘tiborini saqlab qolish, taraqqiy etish, eng rivojlangan mamlakat maqomiga erishish kabi ezgu maqsadlar sari intilmoqda. Bunday oliy maqsadga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Respublikamiz Prezidenti ”Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy yettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusiga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida maqsadga erishish mezonini aniq belgilab shunday deydilar: “Bunday sharoitda inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiya va qo‘yilmalarning o‘sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatorida qo‘yadigan davlatgina o‘zini namoyon eta olishi mumkin”<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. юкак маънавият – энгилмас куч. – Т: “Маънавият”, 2011. 1-б.

<sup>1</sup> Зуннунов Б.Бадий асар таҳлили методикаси. – Т: “Ўқитувчи”, 1989, 4-бет.

<sup>2</sup> Ислом Каримов ”Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti” //“Маърифат” газетаси, 2012 йил. №14, 1-бет.

Mustaqillik xalqimiz hayotida, ijtimoiy tafakkurida tub burilishlar yasadi. O'zlikni anglash, ma'naviy tozarish, ma'rifiy yuksalish – har bir sohada taraqqiyotga intilish hayotimizning mazmun-mohiyatiga aylanib bormoqda. Bu jarayon talim sohasida, uning barcha bosqichlarida ham o'zining yorqin ifodasini topib, jadal rivojlanmoqda. Yurtboshimiz talim sohasini isloh qilish dasturi - “o'zbek modeli”ning talabini izohlar ekanlar, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirish bosh maqsad ekanligiga alohida urg'u beradilar<sup>2</sup>. Bu ezgu maqsadni to'la amalga oshirish uchun, avvalo, o'qitish vositalari, usullari mukammal bo'lmog'i kerak. Adabiy ta'limning maqsad va vazifalari ro'yobi ham, shubhasiz, o'qitish vositalari va usullarining mukam-malligiga bog'liqdir. Adabiy ta'lim o'quvchini barcha bilimlarni egallashga hozirlaydi, o'qish, o'rganishga ehtiyojlar paydo bo'lishida muhim vositachiga aylanadi. Bunday ulkan vazifalarni ado etish adabiyot o'qituvchisidan pedagogik bilim, yuksak mahorat va nazariy bilimlarni chuqur bilishni zarurat qilib qo'yadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridandir. U o'zining 40 yildan oshiqroq ijodiy faoliyatida barcha ijtimoiy sohalarni aks ettiradigan asarlar yaratdi, asarlari turli tillarga tarjima qilindi. Abdulla Qahhor ajoyib asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko'rsatgan nodir iste'dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo'qki, ko'p qirrali talant egasi bo'lgan Abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o'z talantini namoyish qilmagan bo'lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida ham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani qoyil qoldirji, bu janrlarda, xususan, hikoyachilikda, original va yetuk badiiy asarlar yaratdi.

Abdulla Qahhor so'zga xasis, fikrga saxiy san'atkor. Adib ijodining fazilatlari ko'p. U ko'pchilikni qiziqtiradigan masalalar haqida yozadi, adabiyotda “qo'riq”larni ochadi, yangi gap aytadi, yangi timsollar yaratadi. Abdulla Qahhorning badiiy ijodidagi novatorligi ham, avvalo, ana shundadir.

Yozuvchining asarlari yuksak badiiyligi, g'oyaning aniqligi, ijtimoiyligi, xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlari adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o'z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan.

Abdulla Qahhor o'zbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri bo'lib, adabiyotimizda bu janrning shakllanishi va o'sishi uning nomi bilan chambarchas bog'liqdir.

---

<sup>2</sup> Ислом Каримов ”Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti” //“Маърифат”газетаси, 2012 йил. №14, 1-бет.

Abdulla Qahhor G'.G'ulom, A.Qodiriy, Oydin, Oybek kabi yozuvchilar bilan hamkorlikda ijod etib, hikoya janrining ko'pgina namunalarini yaratdi. Uning "Bemor", "Anor", "Millatchilar", "Tomoshabog'", "O'g'ri", "Maston", "Qanotsiz chittak", "Sat'atkor", "Jonfig'on", "Yillar", "Adabiyot muallimi" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi.

Abdulla Qahhor qissa va roman janrlarini taraqqiy etishiga ham salmoqli hissa qo'shdi. U "Sarob", "Oltin yulduz", "Qo'shchinor chiroqlari", "Sinchalak", "O'tmishdan ertaklar", "Muhabbat" singari ajoyib roman va qissalar yozib, katta janrda ham mohir san'atkor ekanini isbotladi. Yozuvchi ajoyib o'xshatishlar, go'zal sifatlashlar, original mubolag'alar va metofoalar, hikmatli so'z va iboralar yaratish orqali o'z fikrini g'oyat siqiq va obrazli qilib ifodalaydi. Abdulla Qahhorni o'ziga va o'zga mualliflarga nihoyatda talabchan yozuvchi bo'lganligini e'tirof etadilar. U qo'zlyozma ustida ishlashdan hech bir erinmagan, o'z asarlarini qayta-qayta ishlab pishitgan, ularga sayqal va jilo bergan. Asarlari kitob bo'lib chiqqandan yoki pesa sahnaga qo'yilgandan so'ng ham qo'lyozma ustida ishlashni davom yettiravergan.

Abdulla Qahhor adabiyotimizning kelajagi uchun jon kuydiruvchi, yosh yozuvchilarni tarbiyalab voyaga etkazishni doimo muhim ish deb bilgan, bu sohada ko'p yozuvchilarga namuna ko'rsatgan, adabiyotimizda o'ziga xos maktab yaratgan va ko'plab shogirdlar etishtirgan ustoz san'atkor sifatida qadrlidir.

Adabiy ta'limda Abdulla Qahhor ijodi va u yaratgan hikoya, qissa va romanlarni o'rganishga doimo jiddiy e'tibor qaratilgan. Umumta'lim maktab dasturlariga yillar davomida uning "O'g'ri", "Bemor", "Adabiyot muallimi", "Kampirlar sim qoqdi", "Asror bobo", "Sinchalak", "Anor", "Sarob", "Qo'shchinor chiroqlari" kabi asarlari kiritilgan, chuqur o'rganilgan. Amaldagi umumta'lim maktablari adabiyot dasturida adibning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor"; akademik litsey talabalar uchun mo'ljallangan adabiyot dasturida "Sarob" romanini o'rganish o'zda tutilgan.

Ta'lim bosqichlarida Abdulla Qahhor ijodini o'rganish yuzasidan etarli tajribalar to'plangan, ommalashtirilgan. Lekin sobiq sho'rolar davrida adib asarlarini o'rganish, tahlil qilish komfirqa mafkurasi doirasida, uning talablari asosida o'rganilgani bugun hech kimga sir emas. Istiqloq sharofati bilan adabiyotga adabiy ta'limga e'tibor keskin o'zgardi, ijobiy yuksalishlar davri boshlandi. Adib asarlarini o'rganishga yangilangan badiiy tafakkur asosida yondashish; uning asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarda ma'naviy va mafkuraviy immunitetlarni hosil qilish; adib mahorati, iste'dodini tadqiq qilish vositasida o'quvchilarning fikrlash quvvatini oshirish, ona tilimiz qadrini ulug'lash, tildan foydalanish madaniyatini yanada rivojlantirish; o'quvchilarning adabiy tur va janrlar haqidagi ilmiy–nazariy bilimlarini adib

asarlari misolida yanada yorqinroq aks ettirish; adib asarlarini zamonaviy axborot vositalari va yangilangan pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish ko'lamini kengaytirib, adabiy ta'lim maqsad va vazifalarining ro'yobini ta'minlash kabi ezgu maqsadlar mavzuyimizning, ilmiy ishimizning dolzarbligini ham belgilab beradi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Abdulla Qahhor ijodini o'rganish, tadqiq qilish, adabiy ta'limda adib asarlarini o'rganishning samarador metod va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish borasida juda ko'p ilmiy, pedagogik ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Bu o'rinda I.V.Borolinaning "Abdulla Qahhor" (1957), H.Abdusamatovning "Abdulla Qahhor" (1960), M.Sultonovning "Abdulla Qahhor uslubi" (1967), M. Qo'shchonov va U. Normatovning "Mahorat sirlari" (1968) nomli monografiyalarini, shuningdek, I. Sultonov, H. Yoqubov, P. Qodirov, O. Sharafiddinov, Sh. Yusupov, X. Doniyorov kabi olimlarning "Qahhorshunoslik"ka oid ilmiy tadqiqotlarini, S. Mirzaevning "Xalq sevgan adib" risolasini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Adabiy ta'limda yozuvchi ijodini o'rganish, tadqiq qilish hamisha dolzarb masalardan biri sanalgan. Ijodkorning o'ziga xos uslubini, timsol yaratish mahorati, so'zga bo'lgan e'tiborini kuzatish, tahlil etish orqali badiiy asarni idrok qilish, uning g'oya va mazmunini to'la tushunish, ayni paytda, satrlarga singdirilgan ma'no sirlaridan voqif bo'lish imkoniyati yanada kengayadi. S.Ismatovning "Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish"<sup>1</sup> adabiyot o'qituvchilari uchun qo'llanmasi ham adib ijodiy uslubini tahlil etishga yo'naltirilgan. O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligining ilmiy-metodik jurnali "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida adib ijodini o'rganish yuzasidan qator yillar davomida turkum maqolalar berilgan: S. Matjonov, X. Saidmurodovlarning "Ulug' adib ijodini o'rganishda oshkora muloqot"<sup>2</sup>, M. Nurmatovning "Uch avlod Abdullasi" sinfdan tashqari mashg'ulot ssenariysi<sup>3</sup>, X.Hamraqulovning "Sarob" romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o'rganilishi"<sup>1</sup>, M. Mirzarahimo-vaning "7-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish"<sup>2</sup>, G. Nurmatovning "6-sinfda abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasini o'rganish"<sup>3</sup>, SH.

---

<sup>1</sup> Исмаатов С. Мактабда Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш. – Т: Ўқитувчи. 1978.

<sup>2</sup> Матжонов С., Саидмуродов Х. Улуғ адиб ижодини ўрганишда ошкора мулоқот. // "Тил ва адабиёт таълими" илмий-метод. журнали, 1910, № 10, 16-17-бетлар.

<sup>3</sup> Нурматова М. "Уч авлод Абдуллasi" // "Тил ва адабиёт таълими" илмий-метод. журнали, 1993, № 2, 23-25-бетлар.

<sup>1</sup> Ҳамрақулова Х. "Сароб" романида шахс фожиаси ва унинг танқидчилиқда ўрганилиши. // "Тил ва адабиёт таълими" илмий-метод. журнали, 2002, № 4, 53-58-бетлар.

<sup>2</sup> Мирзараҳимова М. 7-синфда Абдулла Қаҳҳорнинг "Ўғри" ҳикоясини ўрганиш. // "Тил ва адабиёт таълими" илмий-метод. журнали, 2006, № 2, 9-19-бетлар.

<sup>3</sup> Нурматова Г. 6-синфда Абдулла Қаҳҳорнинг "Бемор" ҳикоясини ўрганиш. // "Тил ва адабиёт таълими" илмий-метод. журнали, 2010, № 3, 15-20-бетлар.



Mahkamovaning “Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish tajribasidan”<sup>4</sup>, R.Umrzaqovning “Bemor” hikoyasining struktural tahlili”<sup>5</sup>, S. Abdurahmonova-ning “Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish usullari”<sup>6</sup> kabi metodik maqolalarda adib ijodini o‘rganishning samarador metod va usullari qayd etilgan. Shunday bo‘lsa-da, adib ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rganish ishlari hali o‘z yakunini topgan emas. Tadqiqot ishimizning aynan shu mavzuga qaratilishi bu sohada echimini kutayotgan masalalarga qaratilgani bilan xarakterlanadi.

**Ishning maqsadi.** Adabiy ta’limda Abdulla Qahhor ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rgatishning samarador metod va usullarini tadqiq qilish.

**Ishning vazifalari:** tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutilgan:

- Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan to‘plangan pedagogik tajribalarni tahlillash;
- Uozuvchi ijodiy merosini o‘rgatishning pedagogik-psixologik jihatlarini belgilash;
- Abdulla Qahhor ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rgatishning samarador metod va usullari tizimini ishlab chiqish;
- Abdulla Qahhor ijodini yangicha yondashuv asosida o‘rganishning mazmunini xarakterlovchi uslubiy qo‘llanma, ilmiy-pedagogik maqola yaratish;
- Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan ochiq darslar, ilmiy-amaliy davra suhbatlari, turli adabiy tadbirlar tashkil etish.

**Ilmiy yangiligi.** Kichik tadqiqotimiz davomida adabiy ta’limda yozuvchi ijodini, timsol yaratish mahoratini, uslubini yangicha yondashuv asosida o‘rganishning tizimli metod va usullari ishlab chiqiladi, amaliyotga tavsiya etiladi.

#### **Amaliy ahamiyati.**

- Adabiy ta’limda Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan to‘plangan tajribalar tahlil qilinadi;
- Yozuvchi ijodini o‘rganishning pedagogik asoslangan metodlari tavsiya etiladi;

---

<sup>4</sup> MAxkamova Ш. Абдулла Қаххор иждодини ўрганиш тажрибасидан. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2011, № 4, 11-14-бетлар.

<sup>5</sup> Умрзақов Р. “Бемор” ҳикоясининг структурал таҳлили. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 2. 17-21-бетлар.

<sup>6</sup> Абдурахмонова С. Абдулла Қаххорнинг “Ўғри” ҳикоясини ўрганиш усуллари. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 6, 13-18-бетлар.

- Tavsiya etilayotgan metodlar viloyatdagi maktab, litsey hamda kasb-hunar kollejlarda sinovdan o'tkaziladi;
- Bu narsa tadqiqot ko'lamini kengayishiga, undagi tavsiya etilayotgan uslublarning amaliyotga tezroq kirib borishiga imkoniyatlar yaratadi;
- Tadqiqot ishi manbalaridan talabalarga, o'quvchilarga shu mavzu yuzasidan ma'ruzalar o'qishda, kurs ishlari yozishda, turli adabiy-badiiy tadbirlar o'tkazishda manba sifatida foydalanish imkoni tug'iladi.

**Ishning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, boblarning ichki bo'linishi, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 80 betni tashkil etadi.

## **1-bob. Adabiy ta'limda yozuvchi ijodini o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari**

### **1-1. Yozuvchi ijodini o'rganishning ilmiy-pedagogik asoslari.**

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida o'z uslubiga, o'z ovozigga ega bo'lgan, adabiyotimiz taraqqiysiga sezilarli ijobiy hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning yorqin ijodi katta mahorat maktabi sifatida hamisha ijodkorlarning diqqat markazida bo'lgan. Uning

asarlari qayta-qayta murojaat qilmagan, uning uslubiy mahoratidan bahra olmagan, uni o'ziga ustoz deb sanamagan ijodkorlarni topish yaqin-yaqingacha aslo mumkin emas edi; adabiy ta'lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma'rifatga to'la bo'lgan.

Adabiyotimizning yirik vakili, o'zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o'n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko'p avlodlar uchun mulohaza ob'ekti bo'lib qolishi shubhasizdir<sup>1</sup>.

“... ustoz har bir uchrashuvga yangi, tesha tegmagan gap bilan kelar edilar, bir soatmi, ikki soatmi butun auditoriya u kishining og'izlariga qarab o'tirardi. Bu – noyob talant namunasi edi, bu uncha-muncha notiqning qo'lidan keladigan ish emas edi. ... ustoz, umuman, jamiyatga, xalqqa, insoniyatga xiyonat bo'ladigan hamma narsaga murosasiz edilar. Ustozning murosasiz bo'lishlari bitta narsa bilan izohlanadi xolos: xalqpavarlik. Xalqparvarlik ustozning shiori edi...”<sup>2</sup>.

Abdulla Qahhor ajoyib asarlar bilan o'zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko'rsatgan nodir iste'dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo'qki, ko'p qirrali talant egasi bo'lgan Abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o'z talantini namoyish qilmagan bo'lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida ham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani hayron qoldirdi, bu janrlarda (xususan, hikoyachilikda) original va etuk badiiy asarlar yaratdi.

Abdulla Qahhor so'zga xasis, fikrga saxiy san'atkor. Adib ijodining fazilatlar ko'p. U ko'pchilikni qiziqtiradigan masalalar haqida yozadi, adabiyotda “qo'riq”larni ochadi, yangi gap aytadi, yangi obrazlar yaratadi. Abdulla Qahhorning badiiy ijoddagi novatorligi ham, avvalo, ana shundadir.

Abdulla Qahhorning asarlari yuksak badiiyligi, g'oyaning aniqligi, chuqur ijtimoiyligi va xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlar adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o'z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Byuu o'rinda i. B. Borolinaning “Abdulla Qahhor” (1957), H. Abdusamatovning “Abdulla Qahhor” (1960), M. Sulstonovning “Abdulla Qahhor uslubi” (1967), M. Qo'shchonov va U. Normatovning “Mahorat sirlari” (1968) nomli monografiyalarini. Shuningdek, I. Sulstonov, X.Yoqubov, P.Qodirov, O. Sharafiddinov, Sh.Yusupov, X.Doniyorov kabi olimlarning Qahhorshunoslikka oid maqolalarini eslatib o'tish

<sup>1</sup> Раҳмон Кўчқор. Мен билан мунозара қилсангиз... –Т.: “Маънавият”, 1998, 4-бет.

<sup>2</sup> Асрор Самад. Абдулла Қаҳҳор ҳикматлари. – Т.: “Ўзбекистон” 1990, 4-5-бетлар.

maqsadga muvofiqdir. Chunki bu asarlarda adib ijodining g'oyaviy –estetik xususiyatlari tahlil etilib, Abdulla Qahhor ijodi yuksak baholanadi.

Turkman adabiyotining oqsoqoli berdi Kerboboev “Abdulla Qahhor faqat o'zbek yozuvchisigina bo'lib qolmay, u ummumittifoq yozuvchisidir. Shu bilan birga, Abdulla Qahhor zamonamizning sevikli yozuvchilaridan biridir” degan edi.

K. Simonov, A.Surkov, N.Tixonov, Vera Smirnova, Irina Borolina kabi rus yozuvchi va adabiyotshunoslari, Ivan Le singari ukrain, Garegin Sevuns kabi arman adabiyoti oqsoqollari uchun ham Abdulla Qahhor ijodiga ana shunday yuqori, adolatli baho berganlar.

Abdulla Qahhor 1907 yilda Qo'qon shahrida temirchi oilasida tug'ilgan. 1919-1924 yillarda avval boshlang'ich maktabda, keyinchalik Qo'qon pedagogika texnikumida ta'lim olgan. U 1925 yilda Toshketga kelib, “Qizil O'zbekiston” gazetasi va “Mushtum” jurnallida adabiy xodim bo'lib ishladi. Bu davrda Abdulla Qahhor hayotida uchragan qiyinchiliklarga qaramay, ko'proq o'qish va o'rganishga intildi. 1926-1929 yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining ishchilar fakultetida (rabfak)da o'qidi. Abdulla Qahhor universitetni muvaffaqiyatli tugatgach, 1929 yilda qo'qon shahriga borib, “Yangi Farg'ona” gazetasida mas'ul sekretar bo'lib ishladi. So'ng, 1930 yilda Toshkentga qaytib, O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida o'qida. Shundan keyin ikki yil davomida A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti aspiranturasida ta'lim oldi.

Abdulla Qahhor 1934-1937 yillarda jurnalda mas'ul kotib, 1938 yildan to 50-yillargacha O'zbekiston davlat nashriyotida redaktor va tarjimon bo'lib ishladi. 1954-1956 yillarda O'zbekiston Yozuvchilar Pravleniyasining raisi vazifasini bajaradi.

Abdulla Qahhor yoshlik chog'idanoq adabiyotga qiqiqqan va badiiy asar yozishni mashq qilgan. 1927 yildan boshlab u matbuotda ko'rina boshlaydi. 20-yillarda “Qizil O'zbekiston”, “Yangi Farg'ona” gazetalarida yoxud “Mushtum” jurnalida “Nish”, “Norin shilpiq”, “Mavlon Kufur”, “Yalang oyoq” taxalluslari bilan e'lon qilingan “Salla-to'n”, “Omin”, “Eshonimiz”, “Eshagim”, “Eshonimizning boshidan o'tganlari” kabi satirik she'rlari ham, “O'zing shifo ber”, “Duoga shak yo'q”, “Domla Mahmudjon Maxdumning quvlanishi”, “Bildirish” singari fel'eton ham Abdulla Qahhor qalamiga mansubdir.

Abdulla Qahhor boshdanoq o'z ijodiga katta talabchanlik bilan tanqidiy yondashadi, kamchiliklarini o'z ustida qunt bilan ishlash, badiiy mahorat “sir”larini o'rganish orqali yo'qota boradi.

20-yillarda izlanish va o'rganish davrini o'tagan A.Qahhor 30-yillarda yozuvchi sifatida o'sib, voyaga etadi hamda hikoya janrida ko'pgina ajoyib asarlar yozadi. Shu bilan birga, u o'z kuchini katta prozada ham sinab ko'rdi. “Sarob” (1934) nomli roman yaratib, sinovdan

muvaffaqiyatli o‘tdi. Bunday ijod sohasida erishgan bu yutuqlarini adib urush davrida yanada mustahkamladi. Urush yillarida (1941-1945) boshqa san’atkorlarimiz kabi A.Qahhor o‘zini kurashga safarbar etgan jangchi, deb biladi.

Urushdan keyin “Qo‘shchinor chiroqlari” (1951) romanini, “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “Ayajonlarim” kabi pesalarini, “Sinchalak”, “Muhabbat” kabi qissalarini, “O‘tmishdan ertaklar” memuarini katta mahorat bilan yaratdi.

Hikoyachilik adibning eng sevgan janridir. A.Qahhorning o‘zi “Men hikoyachilikni juda yaxshi ko‘raman va shu bilan birga, hamma vaqt qalamimning qayrog‘i deb qaraganman”, - deb yozgan edi.

Abdulla Qahhor hayotni va inson psixologiyasini chuqur o‘rganish tamoyillarini N.V. Gogol, A.P. Chexov, A. Qodiriy singari ustoz adiblarning mahoratini jiddiy o‘zlashtirish orqali asardan asarga o‘sa bordi, hikoya yozish “siri”ni “ faktlar rudasidan haqiqat nuqrasini topish” san’atini egalladi.

Abdulla Qahhor 30-yillarda kichik hikoyalar ustasi ifatida mashhur bo‘ldi. Uning bu davrda yozgan hikoyalarini mavzu e‘tibori bilan ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga o‘zbek xalqining o‘tmishini ko‘rsatuvchi hikoyalar ( “Bemor”, “Anor”, “Millatchilar”, “Tomoshabog‘” “O‘g‘ri”) kirs, ikkinchi guruhni hozirgi zamon mavzusida yozilgan asarlar (“Maston”, “Qanotsiz chittak”, “San’atkor”, “Jonfig‘on”, “Yillar”, “Adabiyot muallimi” kabilar) tashkil etadi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida aytilmoqchi bo‘lgan fikr, g‘oya, maqsad nasihat qilish yo‘li bilan emas, aksincha, timsollarning faoliyatidan, asarning umumiy ruhiyatidan keltirilib chiqariladi<sup>1</sup>.

Ozod Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor”<sup>2</sup> – adib hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar kitobi ijodkor hayoti va ijodini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif o‘z asari debochasida shunday yozadi: “O‘zbek adabiyoti asoschilaridan biri – Abdulla Qahhor bosib o‘tgan sharaflil va mashaqqatli yo‘l har bir qalamkash, har bir oddiy kitobxon uchun ibrat maktabidir. Ulkan iste‘dod egasi so‘nggi nafasigacha adabiyot dargohini muqaddas bildi, so‘zning sofliqi, jangovorliqi va hayotiyligi uchun qat‘iy kurashdi. Mana shu tufayli adib yaratgan g‘oyaviy – badiiy yuksak romanlar, qissalar, hikoyalar, pesalar adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egalladi”.

O‘zbekiston Qahramoni munaqqid Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhorning yaqin shogirdlaridan biridir. Uning mazkur kitobi, avvalo, shogirdning ustozga bo‘lgan cheksiz

<sup>1</sup> Мирзаев С. Халқ севган адіб – Т.: “Ўзбекистон”. 3-5-бетлар.

<sup>2</sup> Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Т.: “Ёш гвардия”, 1988. 2-бет.

muhabbatining ifodasi, qolaversa, kitobxonlarni adib haqida yanada boy ma'lumotlar bilan ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodning badiiy tafakkurini o'stirish, ijod ostonasiga qadam qo'yayotgan yosh ijodkorlarga ijodiy ibrat va ilhom berish kabi maqsadlarni ham ko'za tutgandir. Kitobda: Bolalik so'qmoqlari, Ilk izlanishlar, ikkinchi cho'qqi, kichik janrning katta olami, Qalam yolqini, Adib saboqlari, Ulg'ayish yo'lida, "Sinchalak", So'nggi sahifalar, Adib hayoti solnomasi, Ilova, Abdulla Qahhor: O'zgina o'zim haqimda fasllari mavjud bo'lib, har bir fasl adabning ma'lum ijod qirrasini kashf etishga yo'naltirilgani bilan yanada xarakterlidir.

## **1-2. Adabiy ta'limda Abdulla Qahhor ijodining o'rganilishi**

Adabiy ta'limda Abdulla Qahhorning ijodini o'rganish masalasiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmalardan biri – bu Sa'dulla Ismatovning "Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish"<sup>3</sup> uslubiy qo'llanmasidir. O'z davri adabiyot o'qituvchilari uchun namunali sanalgan ushbu uslubiy qo'llanmada Abdulla Qahhor ijodini o'rganishning ko'p qirralari ochib berilgan Muallif Abdulla Qahhor ijodini sakkiz yillik maktablarda o'rganish, 5-sinfda "O'g'ri" hikoyasini o'rganish, 7-sinfda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish, 10-sinfda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'rganish, Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganish (1930 yillardagi ijodi), Abdulla Qahhorning Ulug' Vatan urushidan keyingi yillardagi ijodini o'rganish, "Sinchalak" qissasini o'rganish, A. Qahhor ijodi bo'yicha yakunlovchi suhbat, A. Qahhor ijodi bo'yicha o'tkaziladigan yozma ishlar, A. Qahhor ijodini sinfdan tashqari o'rganish yo'llari,

---

<sup>3</sup> Исमतов С. Мактабда Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш // иккинчи нашри. Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма. – Т: "Ўқитувчи". 1978.

bibliografiya ruknlari ostida o'rganishning samarador metodlari tizimini tavsiya etadi. uslubiy qo'llanmaning yutuqlari qatorida adib asarlarini o'rganishga davr nuqtai nazaridan yondashilganini, tavsiya etilayotgan uslubiy tavsiyalar hukmron mafkura talablariga to'la bo'ysundirilgani kabi qusurlarni aytib o'tish joizdir. Shunday bo'lsa-da, bunday uslubiy qo'llanmalar Abdulla Qahhor va shu kabi ijodkorlar asarlarini adabiy ta'limda o'rganishning mazmunini boytitishga, metodik tajribalar tadqiq etilib, ommalashtirilishiga; dars o'tish metod va usullari ko'lamining kengayib, takomillashiga, albatta, o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan.

Subutoy Dolimov, Hamidulla Ubaydullaev, Quadrat Ahmedovlarning hammuallifligida yaratilgan Adabiyot o'qitish metodikasi<sup>1</sup> – universitet va institutlarning filologiya fakulteti o'qituvchi va talabalariga uslubiy qo'llanmasi- adabiy ta'lim mazmunini boytitishga, yangi metod va usullar tizimini ommalashtirishga, adabiy ta'lim maqsad va vazifalarining ro'yobini amalga oshirishda juda muhim qo'llanma sifatida maydonga kelgan. Unda Abdulla Qahhor ijodini, xususan, uning “Asror bobo”, “Sinchalak” hikoya va qissasini o'rganish yuzasidan uslubiy tavsiyalar qayd etilgan. O'z darida bu metodik kitob adabiyot o'qituvchilarining yaqin maslahatgo'yi bo'lgan, ta'lim jarayonida o'quv qo'llanma sifatida amaliy keng foydalanilgan. Hozirda adabiy ta'lim taraqqiyotini tanqidiy tadqiq qilish, uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish uchun ham ushbu qo'llanmaga murojaat qilinadi, tanqidiy o'rganiladi.

Ma'lumki, Abdulla Qahhorning juda ko'p ibratomuz so'zlari, aytgan “qayroqi” fikrlari, “tesha tegmagan” o'xshatishlari ilm ahli, kitobxonlar orasida, keng jamoatchilik nutqida iboralarga, hikmatli so'zlar darajasiga aylanib ulgurgan. Odatda, Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan o'quvchilar badiiy tafakkuri o'stirilar ekan, adabiyot o'qituvchi dars davomida, hech bo'lmaganda, 2 yoki 3 marotaba Abdulla Qahhorning ana shunday hikmatlariga murojaat qiladi, o'quvchilarga kuchli hissiy ta'sir o'tkazishga intiladi. Masalan, adabiyot va uning inson hayotida tutgan o'rni haqida gap ketganda Abdulla Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak” degan hikmatini, adabiyot taqdiri, yozuvchi mehnati haqida gap ketganda uning: Adabiyotga o'g'ri mushukka o'xshab tuyukdan oshib tushadiganlar ham bor; Adabiyot ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi – meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonlarning ko'nglida meva tugadi; Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi; talant va mahorat haqida so'z ketganda: Semiz kitobning yuragi yaxshi tepmaydi; Yozuvchining mahorati shundaki. Butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera oladi; Palag'da tuxumga murch sepib

---

<sup>1</sup> Долимов С, Убайдуллаев Х, Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”. 1967.400-403-б.

bergan bilan uni eb bo'lmaydi; tanqid va tanqidchilik to'g'risida bilim berilganda: Asr to'g'risida eng to'g'ri, xolis yozilgan taqriz kutubxonaning daftarida bo'ladi; Birovning ashulasini aytgan tanqidchi o'smaydi; uzoqdan otilgan tosh qattiq tegadi; Uy oladigan kishi uyni minorada turib ko'rmaydi; Sukut – tanqidning bir turi kabi juda ko'plab pandlari, qalb so'zlari, yozuvchi ijodiy maktabining xulosalari har qanda kitobxonni, o'quvchini o'z ta'sir domiga tortadi, o'ylantiradi. Kitobxonlarga, o'quvchilarga, adabiyot muallimlariga adibning bunday hikmatlaridan ortiqcha izlanishlarsiz bahra olishlari uchun Asror Samad mehnati bilan chop etilgan “Abdulla Qahhor hikmatlari”<sup>1</sup> kitobi ham ma'naviy ozuqa, ham metodik qo'llanma sifatiga egadir. Kitobning ixcham shakli, hikmatlarning ruknlar ostida ifodalanishi kitobxonga ham, adabiyot muallimi yoki o'quvchilarga bir qancha qulayliklar tug'diradi.

Adabiy ta'limda yaratilgan darsliklar avlodiga e'tibor qaratganimizda shunga guvoh bo'ldikki, Abdulla Qahhor ijodini o'rganish, uning asarlari g'oyasi, mazmuni bilan tanishish, o'quvchilarning adib asrlari orqali badiiy idrokini o'stirish salmoqli yillarni tashkil etadi. masalan, 5-sinf o'quvchilari uchun 1993 yilda chop etilgan “Adabiyot”<sup>2</sup> darsligida Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o'rganish ko'zda tutilgan. 6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan “Adabiyot”<sup>3</sup> darsliklari-ning 2000 yil, 2005 yil, 2009 yil avlodlarida Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o'rganish uchun kiritilgan. 7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan “Vatan adabiyoti”<sup>4</sup> (1989 yil) “Kampirlar sim qoqdi” hikoyasi, “Vatan adabiyoti”<sup>5</sup>//darslik-xrestomatiya// (1991 yil) “Teshiktosh” hikoyasi, “O'zbek adabiyoti”<sup>6</sup> //darslik-majmua// (1995, 1997) “O'g'ri” hikoyasi, ADABIYOT<sup>7</sup> 7-sinf uchun /darslik -majmua/ (2000, 2009) “O'g'ri” va “Dahshat” hikoyalari, “Vatan adabiyoti”<sup>1</sup> 9-sinf darsligida // darslik-xrestomatiya// (1993) “O'timshdan ertaklar” memuari o'rganilganiga guvoh bo'lamiz. “O'zbek adabiyoti”<sup>2</sup> 11-sinf uchun darsligi orqali (1993) “Ming bir jon”, “Asror bobo”, “Sinchalak” kabi hikoya va qissalaridan o'quvchilar bahramand bo'lganini bilib olishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda Abdulla Qahhor ijodini o'rganish izchil davom etmoqda. 6-sinf “Adabiyot”<sup>3</sup> darsligida “Bemor” hikoyasi berilgan va rejada uni o'rganish uchun 2soat vaqt ajratilgan. 7-sinf Adabiyot<sup>4</sup> darsligidan

<sup>1</sup> Asror Samad. Abdulla Qahhor hikmatlari. – T: “Ўзбекистон”. 1990.

<sup>2</sup> Ўзбек адабиёти 5-синф дarsлиги. – T: “Ўқитувчи”, 1993.123-бет.

<sup>3</sup> Ўзбек адабиёти. ADABIYOT. – T: “Ўқитувчи”, 2000, 2005, 2009.

<sup>4</sup> Vatan adabiyoti 7-sinf. –T: “Ўқитувчи”, 1989.

<sup>5</sup> Vatan adabiyoti 7-sinf. –T: “Ўқитувчи”, 1991.

<sup>6</sup> Ўзбек адабиёти 7-sinf. –T: “Ўқитувчи”, 1995, 1997.

<sup>7</sup> ADABIYOT. 7-sinf. –T: “O'qituvchi” 2000, 2009.

<sup>1</sup> Vatan adabiyoti 9-sinf. –T: “Ўқитувчи”, 1993.

<sup>2</sup> Ўзбек адабиёти 11-sinf uchun. – T.: “Ўқитувчи”, 1993.

<sup>3</sup> ADABIYOT I qism. 6-sinf. –T: “Ma'naviyat”2013

<sup>4</sup> ADABIYOT 7-sinf –T.: “Ma'naviyat” 20013.



“O‘g‘ri”, “Dahshat” hikoyalari joy olgan va o‘quv rejasida ularni o‘rganish uchun 3 soat vaqt belgilangan. Akademik litseylarning 3-bosqichida o‘quvchilari uchun yozilgan “Adabiyot”<sup>5</sup> darsligidan Abdulla Qahhorning “Sarob” romani joy olgan.

Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish ko‘lamini kengaytirish, uning asarlarini o‘rganishga yangilangan pedagogik tafakkur asosida yondashish, adib asarlari vositasida o‘quvchilarda ma’naviy-mafkuraviy immunitetlarni yanada shakllantirish adabiy ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Biz ishimizning keyingi bosqichlarida adabiy ta’lim jarayonida Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan to‘planayotgan yangi metod va usullar tavsifni keltirishga hamda adib ijodini o‘rganish yuzasidan bizning yangicha yondashuvlarimizga alohida e’tiborimizni qaratamiz.

## **2-bob. Abdulla Qahhor asarlarini o‘rganish orqali yangicha badiiy tafakkur hosil qilish**

### ***2.1. O‘quvchilarni Abdulla Qahhor hikoyalari matni ustida ishlashga o‘rgatish***

O‘zbek tilining izohli lug‘atida<sup>1</sup> matn so‘ziga shunday izoh berilgan: **Matn** arabcha so‘z bo‘lib ( “**yelka**” ma’nosini anglatadi), nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst, text . 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Matn bilan bog‘liq yana quyidagi atamalar bor:

**Matnshunoslik** – arabcha, matn o‘rganuvchi – matnshunoslik sohasi mutaxassisi, tekstolog.


---

<sup>5</sup> ADABIYOT Akademik litseylarning III bosqich o‘suvcilari uchun . – T. “Cho‘lpon” 2010.

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 2-жилд. – Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Далат илмий нашриёти. 2006. 556-бет.

**Matnshunoslik** – adabiyot va folklarga oid qo‘lyozma asarlarni, tarixiy hujjatlarni, ularning haqiqiy, asl matnlarini aniqlash va tanqidiy o‘rganish, sharhlab e‘lon (nashr) qilish maqsadida ular ustida tadqiqotlar olib boruvchi yordamchi tarixiy –filologik fan sohasi; tekstologiya.

*Ma‘lum voqelik haqida tasavvur (ma‘lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi.*



**Dialogik matn** –ikki va undan ortiq suhbatdoshlarning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashnuvidan iborat. Ikki kishi o‘rtasidagi dialogik nutq **savol-javob**, **buyruq-javob**, **xabar-e‘tiroz** kabi mazmunlarda bo‘lib, fikr xususidagi tasdiq, inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo‘lmay, o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da‘vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga doir so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so‘zlashuv va badiiy uslubga xosdir.

**Monologik (tavsifiy) matn** – so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma‘lumot bayonidir. Maqola, insho ham monologik (tavsifiy) matnning bir turi hisoblanadi. Monologik matn nutq so‘zlovchining o‘ziga, o‘zgalarga qaratilgan nutqiy ko‘rinish hisoblanadi. Uning og‘zaki va yozma shakllari mavjud.

Ma‘lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta‘riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so‘zlar, atamalar, modal so‘zlar, fe‘lning funksional shakllari, ravishlar faol qo‘llanadi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan ham keng foydalaniladi. Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

***Til va adabiy ta’limda o‘quvchilarning nutqiy mahoratini oshirish, o‘z fikrini teran ifodalash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida matnlarni kengaytirish yoki qisqartirish yuzasidan amaliy ishlar bajariladi. O‘quvchi nutqiy iqtidorini namoyish etib, qisqa matnni kengaytiradi yoki hajman katta matnlarning mazmuniy tugalligini saqlagan holda qisqartiradi.***

“Asr boshidan buyon “ko‘rsatib berish”, “fosh etish”, “aniqlab olish” bilan shug‘ullanib kelgan milliy adabiyotshunoslik asr adog‘iga etganda tadqiq va talqinga mayl ko‘rsatmoqda. Endilikda o‘zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo‘lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko‘plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o‘rni xolisona belgilanayotir”<sup>1</sup>.

Adabiy ta’limda o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish – bu adabiy ta’lim istiqbolini belgilashda eng muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Matn tahlili, matn ustida ishlash o‘quvchiga juda ko‘p narsa beradi: asar g‘oyasini idrok qilish, timsollarga tavsif berish malakasi, so‘z qudratidan bahra olish, hissiy-ruhiy quvatlanish, badiiy asardan zavqlanish, kitobga mehr qo‘yish, falsafiy mushohadaga, teran fikrga ega bo‘lish, yozuvchi uslubidan bahramand bo‘lish kabi juda ko‘p sifatlar matnni o‘rganish, tahlillash natijasida voqelanadi.

Badiiy asar matni ustida ishlashni bir necha bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

1. Asar matni bilan yaxshilab tanishib chiqish, ifodali o‘qish.
2. Asar syujetini belgilash.
3. Matnni tahlillash: tarixiy, eskirgan va yangi so‘zlarni ajratish, timsollarni belgilash, tavsiflash...
4. Matn yuzasidan faktologik va konseptual savol va topshiriqlar tuzish.
5. Badiiy asar matni yuzasidan xulosa, echim hosil qilish.

Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasining matni tahlili o‘quvchi tafakkurini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> Қозоққбой Йўлдош. Ёник сўз. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2006, 94-бет.

Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib berilgach, sinfdagi a'lochi, ifodali o'qiy oladigan o'quvchidan matnni yana bir marta o'qib berishi so'raladi. Asarni shunday o'qish talab etiladiki, o'quvchilar asar ta'siriga berilsinlar. So'ng asardan jlingan dastlabki taassurotlar o'rganiladi, savol-javob orqali o'quvchilarning ilk bilimlari aniqlanadi. Asar matni ustida ishlash quyidagi epigraf bilan boshlanadi: **“Osmon yiroq, er qattiq”<sup>1</sup>** (maqol). Bu epigraf asar mohiyatini anglashda o'quvchiga yordam beradi. O'quvchilardan maqolning mazmuni, qanday holatlarda qo'llanishi so'raladi. To'g'ri, 6-sinf (“Bemor” hikoyasi 6-sinfda o'rganiladi) o'quvchilari maqol mazmunini, uning ro'chma anday tushuncha anglatishini to'liq aytib bera olmasliklari mumkin. Bunday holatda o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar beradi. Masalan, Aziz o'quvchilar, aytinglar-chi, inson boshiga qanday ish tushganda “osmon yiroq, er qattiq” maqolini qo'llash mumkin. Tabiiyki, bunday savolga juda ko'p o'quvchida javob topiladi. O'quvchilar bu maqolni odamlar boshiga kulfat tushib, chorasiz qolgan holatiga ishlatadilar, deb fik bildiradilar. O'qituvchi hikoyada keltirilgan bu maqol faqat Sotiboldigagina tegishli emasligini, buni asar tahlili davomida bilib olishlarini ta'kidlaydi.

O'qituvchi sharhlab o'qish usuli, savol-javob usuli, tadqiqot usullaridan uyg'un foydalangan holda matn ustida ish olib boradi. Hikoya tugundan boshlanadi: **“Sotiboldining xotini og'rib qoldi”**. Bu Abdulla Qahhorga xos boshlanma. Ob'ekt aniq, lekin kasallik noma'lum. Demak, gap kasallik haqida emas, bemor haqida, Sotiboldi va uning atrofida xususida boradi. Aynan **“og'rib qoldi”** jumlasini o'quvchida hikoyaga qiziqish uyg'otadi, kutilmaganlik, keskinlik ma'nolarini ifodalashi bilan hikoyaning shiddatli kechishiga ishora qiladi.

O'qituvchi o'quvchini fojiali echimga bosqichma-bosqich tayyorlab boradi. Buni Sotiboldining xotini sifatlash orqali ko'rsatadi. Birinchi jumladagi **“Sotiboldining xotini”** birikmasi hikoyada boshqa takrorlanmaydi, ikkinchi jumlada u kasalga, keyingi jumlada betobga aylanadi. Voqealar rivojida Sotiboldining xotini og'irlashib, ahvoli yomonlashib boradi. U o'limiga qadar bemorlikning barcha darajalarini boshdan kechiradi. O'qituvchi Sotiboldining xotini og'rib qolishi, undan keyin sodir bo'lgan vo'qealarni tizimlashi o'quvchilaridan so'raydi. O'quvchilar voqealar rivojini quyidagicha chizadilar.

1. Sotiboldining xotini og'rib qoldi.
2. Sotiboldi uni eskicha o'qitdi.
3. Tabib qon oldi.
4. Betoning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi.
5. Baxshi o'qidi.

---

<sup>1</sup> ADABIYOT umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. 1 qism. – T.: “Ma'naviyat”, 2013. 111-bet.

6. Allaqanday bir ayol o'zicha davoladi:tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi.

7. Qo'shnisi bir kampirning maslahati bilan qizi tongda turib duo qildi.

6. "Chilyosin" o'qitishdi.

7.Bemor olamdan o'tdi.

Qilinayotgan "muolajalar" bemorga nima uchun foyda bermasdan, uni saqlab qololmay, ahvoli yomonlashishiga sabab bo'lgani o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar asosiy sabab bemorni shifokor davolamaganida ekanini aytadilar. Bemor shifoxonaga nima uchun olib borilmaganini matn orqali izohlash so'raladi

Sotiboldining shifoxona haqidagi o'ylari bunga imkon bermaydi. U shifoxonani daraxtlar ichiga ko'milgan, eshigiga "qo'ng'iroq tugma"si o'rnatilgan qo'l yetmas imorat, deb biladi, shifoxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oqposhshoning suvrati solingan 25 so'mlik pul keladi.

Shifoxona tasviridan so'ng bemor og'irlashadi. Muallif bemor holatini tasvirlash uchun uni "ingratadi". "Ingramoq" tovushga taqlid so'z bo'lib, bemor holatini aniq ko'rsatadi. Unga hamohang tarzda pashsha ham "ging'illaydi". Adib pashshaga nisbatan "nimjon" sifatini ko'llash orqali uning ham "bemor"ligini ta'kidlamochiday bo'ladi.

Hikoyada xarakter harakatlarda shakllanadi, harakatni esa, fe'l-so'zlar yuzaga keltiradi. O'zbek tilida asosiy fikr kesim orqali anglashilgani bois gapga hukm kesim orqali chiqariladi. Bu tilimizning sintaktik qonuniyatidir. Abdulla Qahhor ham o'z asarlarida bunga to'liq amal qiladi. Shu bilan birga adib kesimga ko'shimcha ma'no ham yuklaydiki, ran oxirida portlash yuz beradi. "Bemor"dagi 40 ta gapning barchasi kesimga ega. Adibning mahorati aynan shunda. O'zbek tiliga boshqa tillardan birorta ham fe'l o'zlashmagani, tilimizning sofligi fe'llarda saqlanganini hisobga olsak, Abdulla Qahhor ularni turli ma'nolarda qo'llash orqali tilimizning cheksiz imkoniyatlarini ko'rsatib berganligiga guvoh bo'lamiz.

Yetti abzatsli hikoyada "bemor" so'zi yetti o'rinda qo'llanadi va sarlavha darajasiga ko'tariladi. Matndagi sinonimlar ichida "bemor" so'zi ko'proq bo'yoqdorlikka ega. Sotiboldining xotini o'sal bo'lgandan so'ng "chilyosin" o'qiladi. Muallif buning natijasini "Chilyosin"dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi" deb izohlaydi, ya'ni "o'sal",dan "bemor"ga qaytadi, hatto pichirlaydi va saharga borib bemorligicha uziladi.

Matnda dialoglarga keng o'rin berilmagan, lekin qahramonlar nutqidan so'ng uning javobi ketma-ketlikda sodir bo'ladi:

1. Devonayi Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsula'zamga-chi?...

...Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo.

2. Begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘ladi, uygoting qizingizni...

... Xudoyo ayamdi, daydiga davo beygin.

3. “Ko‘ngilga armon bo‘lmasin”... ..”Chilyosin” o‘qilishi.

Hikoyada ikkitagina shaxs oti bor: Sotiboldi va Abdug‘aniboy. Abdug‘aniboy o‘z nomi bilan zamon boylaridan, shu bilan birga u boylikning quli. Birinchi abzatsda o‘quvchi Sotiboldining iqtisodiy qashshoqligiga achinadi, biroq ikkinchi abzatsda Abdug‘aniboyning harakatlari orqali ran ma’naviy qashshoqlik haqida ketayotganligini anglaydi.

Abdulla Qahhor asarlarini fojia va komizmsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Bemor”dagi fojiviy holat komik tasvir bilan yakunlanadi. Hikoyada “qahramonlarning fojiasini, o‘sha muhitning komik mohiyatini yanada chuqurroq ochib beradigan bir obraz bor. Bu qizcha obrazi”. Sotiboldi murg‘ak qizchasini tong saharda uyg‘otib duo qilishga majbur etadi. Qizcha ayasiga shifo tilab “Xudo”ga iltijo qiladi. Muallif shu tariqa go‘dak talaffuziga xos reallikni ta’minlaydi.

Hikoyada vaqt aniq ko‘rsatilmaydi. Vaqtni ifodalovchi so‘zlar gumon shaklida qo‘llanilgan (“Bir kechasi” kabi). Shuningdek, biror o‘rinda Sotiboldining nutqi keltirilmagan. Abdug‘aniboy, kampir, qizcha, gadoy, hatto bemor ham gapiradi, ammo Sotiboldi gapirmaydi. Aynan shuning uchun u xo‘jayini oldidan quruq qaytadi. Muallif obrazni so‘zsiz qo‘yish orqali o‘ziga xos xarakter yaratadi.

“Bemor” hikoyasi birinchi jumla asosiga qurilgan. Mazkur jumladagi uchta so‘z asar o‘qildizini tashkil etadi. Muallif ularni asar so‘ngida bir nuqtada birlashtira olgan. Bu birlashtiruvchi so‘z “bemor” so‘zi bo‘lib, u sarlavha darajasiga ko‘tarila olgan.

O‘quvchilar asar matni bilan tanishish davomida o‘qituvchi tomonidan berilgan juda ko‘p savollarga javob aytadilar, munosabatlarini bildiradilar. Asar matni ustida ishlashda o‘quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlarning ahamiyati katta rol o‘ynaydi. har bir mavzudan, matndan keyin uning mohiyatini ochishga qaratilgan, asar badiiyatini anglashga yo‘naltiruvchi, qahramonlarning ruhiy olami tadqiqiga yo‘l ochuvchi savol va topshiriqlar berilishi zarurligi oydinlashadi. Jo‘yali va aniq maqsadni ko‘zlagan savol, topshiriqlar adabiyot darslarining samaradorligini ta’minlasa, faktlarnigina qayd etishni talab etuvchi so‘rovlar mashg‘ulotlar saviyasining past bo‘lishiga olib keladi. **Amaliyotda savol va topshiriqlar mohiyatiga ko‘ra a) faktologik; b) konseptual kabi ikki turga ajratiladi.**

**Faktologik savollar** asosan darslikda mavjud bo‘lgan yoki o‘qituvchi so‘zlab bergan faktlarni qayta so‘zlab berishni ko‘zlaydi. Bunday savollar ustuvor bo‘lgan darslarda o‘quvchi fikrlamaydi, matn ustida izlanmaydi. Chunki ularning javoblari darslikning o‘zida berilgan, faqat bir-ikki bor o‘qib, topib olishsa bo‘ldi. Ko‘pincha amaliyotda o‘quvchilar darslikdagi savollarga

javob topish uyga vazifa qilib berilganda, darslik sahifalarining chetiga javoblari bayon etilgan o‘rinlarga shu savol raqamlarini qo‘yib chiqishadi. Eng achinarlisi, ba‘zan uyga vazifani shu tarzda bajarishni o‘qituvchilarning o‘zlari ko‘rsatib beradilar. Bir qarashda bu hamma uchun qulay: bola qiynalmaydi, ortiqcha zo‘riqmaydi, bir zumda darsni tayyorlab qo‘yadi. Ammo bu holat adabiy ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Oqibatda badiiy so‘zni his qilishdan mahrum, badiiy asar tahlillash ko‘nikma va malakasi shakllanmagan, mutolaadan zavq tuymaydigan bitiruvchilarga ega bo‘linmoqda.

**Konseptual savol va topshiriqlar** o‘quvchini o‘ylashga, mustaqil fikrlashga, izlanishga chorlaydi, asar badiiyati, uning mazmuniga mustaqil nazar tashlash, o‘ziga xosliklarini, farqli jihatlarini topishga yo‘llashi jihatidan g‘oyat muhim metodik apparat sanaladi. Darslikdan bu kabi topshiriqlarga engil javoblar topilmaydi, har bir savolga tayyorlanish, matnni sinchkovlik bilan o‘qish, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini o‘z qalbidan o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Javob topish yo‘lidagi aqliy, ruhiy zo‘riqishlar avvaliga qiyin tuyulsa-da, keyinchalik izlab topilgan haqiqatlar, kashf etilgan go‘zalliklar o‘quvchilar uchun shirin “azob”, estetik lazzat manbaiga aylanadi.

O‘qituvchi “Bemor” hikoyasi yuzasidan quyidagi savol topshiriqlarni berishi maqsadga muvofiqdir:

1. Sotiboldining xotinini og‘rib qolishiga nimalar sabab bo‘lgani to‘g‘risida fikr yuriting.
2. Sotiboldiga kasalni o‘qitishi, tabibga, baxshiga, o‘zini “tabib” hisoblagan bir ayolga ko‘rsatishi hamda qo‘shni bir kampirning maslahati bilan qizchasini saharlab iltijo qilishga undaganidan kelib chiqib tavsif bering, uning bunday yo‘l tutish sabablarini izohlang.
3. Hikoyaga nima uchun “Osmon yiroq, er qattiq” maqoli epigraf qilib olinganini izohlang.
4. Nima deb o‘ylaysiz, odam ma‘naviy va jismoniy bemor bo‘lishi mumkinmi? Jismoniy va ma‘naviy bemor deb qanday odamlarni aytish mumkinligi haqida fikr yuriting.
5. Sizningcha, hikoyadagi qaysi timsollarni jismoniy, qaysi timsollarni ma‘naviy bemor deb atash mumkin?
6. Tarix va boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz asosida fikrlab ko‘ring-chi, qanday jamiyatni, tuzumni “bemor” deb aytish mumkin.

7. Yuqorida berilgan savollarga javob berish orqali hosil qilingan bilimlaringizdan foydalanib yozuvchi asarga nima uchun “Bemor” deb nom berganini izohlashga harakat qiling.
8. Siz o‘z sog‘ingizni saqlash bo‘yicha qanday chora-tadbirlar ko‘ryapsiz?
9. Insonlar doimo sog‘-salomat yurishlari uchun nimalarga rioya qilishlari zarurligini ifodalang.
10. Hikoyada aks etgan davr bilan bugunni qiyoslang, “El sog‘ligi – yurt boyligi”, “Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur...” mavzularida kichik hikoya tuzing.

Tabiiyki, bu kabi savollar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi. Muhimi, hikoyani o‘rganishdan ko‘zlangan maqsadning yuzaga chiqishiga asos solinadi. Matnni o‘rganish davomida undagi til dinamikasi: eskirgan, tarixiy so‘zlar; gap qurilishi; fikrlarning g‘oyat siqiq shaklda ifodalanishi; yozuvchining so‘zga “xasis”, fikrga “boy” ligi – uslubiy mahorati nazardan chetda qolmaydi.

Matnni o‘rganish, tahlillash davomida o‘qituvchi o‘zining bor mahoratini, pedagogik tajribasini ishga solishi maqsadni yaqinlashtiradi. O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish uchun “Bemor” hikoyasini o‘rganish davomida “Tadqiqot” , “Evrika - topdim” usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, asarning bir joyida shunday jumlar bor: “To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo‘riydi; ba‘zan qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitaladi: “Hey do‘st, shaydullo, ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, ba qavli rasuli xudo” ....”<sup>1</sup>. O‘quvchilarga berilgan parcha tahlillash kichik tadqiqot o‘tkazish topshiriladi: tadqiqot uchun yo‘naltiruvchi savollar beriladi:

1. Berilgan parchadagi har bir gapni alohida tahlil qiling: gap qatiga yashiringan “sir” ni toping.
2. Pashshaga nisbatan qo‘llanayotgan “karaxt pashsha”, “xira pashsha” sifatlarini qo‘llanish sababini toping. Pashshaning karaxtlik sababini izohlang.
3. Pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi tasvirining bo‘yoqdor-ligi, ta’sirchanligi sabablarini toping.
4. “Har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitalishi”da nima yashirin. Asar g‘oyasiga bu tasvirning qanday aloqasi borligini aniqlang.

---

<sup>1</sup> ADABIYOT //umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua.// 1 qism. – T.: “Ma’naviyat”, 2013. 111-bet.



O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari. Asar voqea-hodisalariga o'z munosabatlarini bildirib, xulosaga kelishi darsdan ko'zlangan maqsad-larning voqelanishga sabab bo'ladi. Matn bilan ishlash, matn tahlili adabiyot o'qitishning eng muhim uzvi bo'lib, bu, asosan, o'qituvchining ilmiy-pedagogik salohiyatiga, boy tajriba, iqtidor va ijodkorligiga, o'z kasbiga bo'lgan munosabatlariga chambarchas bog'liqdir.

## 2.2. Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishning innovatsion metodlari

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari Abdulla Qahhor hikoyalari bilan 6- va 7-sinflarda tanishadilar. O'quv rejasiga muvofiq 6-sinfda "Bemor" hikoyasini o'rganish uchun 2soat, 7-sinfda "O'g'ri" va "Dahshat" hikoyalarini o'rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan.

Amaliyotda adibning bu asarlarini o'rganish yuzasidan boy tajribalar to'plangan. O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligining ilmiy-metodik jurnali "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida adib ijodini o'rganish yuzasidan qator yillar davomida turkum maqolalar berilgan: S. Matjonov, X. Saidmurodovlarning "Ulug' adib ijodini o'rganishda oshkora muloqot"<sup>1</sup>, M. Nurmatovanning "Uch avlod Abdullasi" sinfdan tashqari mashg'ulot ssenariysi<sup>2</sup>, X.Hamraqulovanning "Sarob" romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o'rganilishi"<sup>3</sup>, M. Mirzarahimovanning "7-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish"<sup>4</sup>, G. Nurmatovanning "6-sinfda Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasini o'rganish"<sup>5</sup>, SH. Mahkamovanning "Abdulla Qahhor ijodini o'rganish tajribasidan"<sup>6</sup>, R.Umrzaqovning "Bemor"

---

<sup>1</sup> Matjonov S., Saidmurodov X. Ulug' adib ijodini urning oshkora muloqot. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 1910, № 10, 16-17-betlar.

<sup>2</sup> Nurmatova M. "Uch avlod Abdullasi" // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 1993, № 2, 23-25-betlar.

<sup>3</sup> Hamraqulov X. "Sarob" romani shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda urning o'rganilishi. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2002, № 4, 53-58-betlar.

<sup>4</sup> Mirzarahimova M. 7-sinfda Abdulla Qahhorning "Ug'ri" hikoyasini urning o'rganilishi. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2006, № 2, 9-19-betlar.

<sup>5</sup> Nurmatova G. 6-sinfda Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasini urning o'rganilishi. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2010, № 3, 15-20-betlar.

<sup>6</sup> MAhkamova SH. Abdulla Qahhor ijodini urning o'rganilishi tajribasidan. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2011, № 4, 11-14-betlar.

hikoyasining struktural tahlili”<sup>7</sup>,

S. Abdurahmonovanning “Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish usullari”<sup>1</sup> kabi metodik maqolalarda adib ijodini o‘rganishning samarador metod va usullari qayd etilgan.

Istiqlol sharofati bilan ta’lim jarayonida tub burilishlar, ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangicha pedagogik tafakkur, o‘qish va o‘rgatishga bo‘lgan munosabatlarning yuksalishi, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi, noan’anaviy, innovatsion, interfaol metod va usullardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘lamining kengayib borayotgani, avvalo, o‘qituvchilardan o‘z ustida ko‘proq izlanish, o‘rganishni; bilimlarini muttasil oshirib borish zaruratini; yangi axborot vositalari, kompyuter texnologiyasini mukammal o‘rganishni; xorijiy tillarni o‘zlashtirib, dars jaryonida fanlararo, ta’lim jarayonlariaro aloqani –integratsiyani takomillashtirishni davriy zarurat sifatida taqozo etmoqda. Bu narsa adabiy ta’lim jarayoniga, xususan, Abdulla Qahhor asarlarini o‘rganishga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi.

Biz metodist olimlarimizning, ilg‘or pedagoglarimizning Abdulla Qahhor ijodini, uning hikoya, qissa va romanlarini o‘rganish yuzasidan ishlab chiqqan uslubiy tavsiyalar tizimini, avvalo, e’tirof etgan holda, ularning mehnatlarini qadrlab, pedagogik jaryonlarda keng foydalanilayotganini ta’kidlagan holda, o‘z fikr-mulohazalarimizni, adib asarlarini o‘rganishga yangicha yondashuvlarimizni bildirmoqchimiz, amaliyotga tavsiya etmoqchimiz.

**6-sinfda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘rganish.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun adabiyotdan o‘quv dasturida A. Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘rganishga 2 soat ajratilgan. O‘quvchilar darsning 1-soatida qisqacha Abdulla Qahhor hayoti va ijodi bilan tanishganlaridan so‘ng “Bemor” hikoyasini navbati bilan o‘qib, tushuncha hosil qiladilar. Darsning 2-soati “Bemor” hikoyasi tahliliga bag‘ishlanadi, o‘quvchilar ma’naviy va ma’rifiy bilim hosil qiladilar.

Dastlab, o‘qituvchi A.Qahhor haqidagi ushbu she’ni yoddan ifodali aytib beradi:

Yo'llar ortimizda qolar edilar,

Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.

Nega ular cheksiz, desam dedilar:

Bu yerdan o'tgandi Abdulla Qahhor.

Yo'llar ortimizda qolar edilar,

---

<sup>7</sup> Умрзақов Р. “Бемор” ҳикоясининг структурал таҳлили. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 2. 17-21-бетлар.

<sup>1</sup> Абдурахмонова С. Абдулла Қаҳҳорнинг “Ўғри” ҳикоясини ўрганиш усуллари. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 6, 13-18-бетлар.

Cho'qqilar qolardi yuksak va qator.

Nega ular yuksak, desam dedilar:

Bu yerdan ham o'tdi Abdulla Qahhor.

Darsning ilk sahifasida **“Zanjir”** o'yidan foydalaniladi: o'quvchilar Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqida bilganlarini qisqa-qisqa aytadilar. O'yin sharti zanjir halqasini usmaslik. Ma'lumot aytmagan o'quvchi zanjir halqasini uzgan sanaladi va o'yindan chetlashtiriladi.

O'quvchilar quyidagicha javob beradilar:

**-o'quvchi:** A.Qahhor 1907-yil Qo'qon shahridan uncha uzoq bo'lmagan Asht qishlog'ida dunyoga kelgan.

**-o'quvchi:** U dastlab internatda, keyin texnikumda, 1926-1930-yillar oralig'ida esa O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetida o'qigan. **-o'quvchi:** O'qib yurgan kezlari «Mushtum» jurnalida, ko'plab gazetalarda uning o'nlab felyetonlari, hikoya va hajviyalari ketma-ket chop etiladi.

**-o'quvchi:** Yosh yozuvchi tez orada yirik janrlarga ham dadil qo'l uradi. 1932-yilda “Qishloq hukm ostida” nomli qissasi, 1935-1939-yillarda uchta “Hikoyalar” to'plami, 1937-yilda esa “Sarob” romani o'quvchilarga kitob shaklida taqdim etiladi.

**-o'quvchi:** A.Qahhor milliy teatr san'atimiz rivojiga ham jiddiy hissa qo'shgan ijodkor sanaladi. Uning “Shohi so'zana”, “Og'riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” singari komediyalari o'z davri tomosha-binlarining sevimli asariga aylangan.

**-o'quvchi:** Poytaxtimizda adib yashab ijod etgan maskan bugungi kunda “Abdulla Qahhor uy-muzeyi”ga aylantirilgan.

**-o'quvchi:** A.Qahhor asarlarining umrboqiyiligiga sabab ularning yuksak iqtidor va cheksiz mehnat natijasi ekanligidir.

**-o'quvchi:** A.Qahhor asarlari umrboqiyiligiga yana bir sabab yozuvchining buyuk so'z ustasi bo'lganligidir. U o'z ustida tinimsiz ishlagan. Bunga misol qilib bir hayotiy voqeani keltirish mumkin. Said Ahmadning xotirlashicha, kunlarning birida ustoz va shogird kitob do'koniga kiribdi. A.Qahhor bir to'plam qog'oz sotib olibdi. Shunda S.Ahmad ustoziga: “Bir romanga yetguli qog'oz oldingiz-ku”, - debdi. A.Qahhor esa: “Bu qog'oz bir hikoyaga yetsa ham katta gap”, - deb javob beribdi. Bundan ko'rinadiki, u har bir sahifani 15-20 martalab qayta-qayta yozgan.

**-o'quvchi:** Sevimli adibimiz o'ziga nisbatan qanday talabchan bo'lsa, shogirdlariga ham shunday talabchan bo'lgan. Adabiyot haqida u juda chiroyli fikrlar bildirgan. Masalan, **“Adabiyot – atomdan kuchli, ammo uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kegak”**.

O'tgan mavzu yuzasidan bilimlar shu tariqa mustahkamlangach, yangi mavzu – “Bemor” hikoyasini o'rganishga kirishiladi.

“Bemor” hikoyasi yana bir marta ifodali o'qib beriladi. Hikoya tahlilini boshlashdan awal asardagi hozirgi kunda eskirib qolgan *izvosh, oq podsho, qabza, oftobshuvoq, chilyosin, Sim, gavron* kabi so'zlarni xattaxtaga yozib, ularni izohlab beriladi. *Izvosh* - ot qo'-shilgan arava; *oq podsho* - o'sha davrdagi Rossiyaning podshosi; *qabza* - tutqich, dasta; *oftobshuvoq* - bahorgi, ta'sir kuchi kam, yoqimli oftob, *chilyosin* - Qur'onning “Yosin” surasini o'qish bilan bog'liq bo'lgan diniy odat, marosim; *Sim* - Farg'ona shahrining eski nomi; *gavron* -tayoq, xivich.

So'ngra savol-topshiriqlar asosida asar tahliliga kirishiladi. Shu maqsadda o'quvchilarga “Asardagi qaysi detallardan siz Sotiboldining xotini yosh ekanligini, Abdug'aniboyning berahm, xasisligini bilib oldingiz?” - deya murojaat qilinadi. O'quvchilar shunday javob beradilar:

**-o'quvchi:** To'rt yashar qizchasi borligidan Sotiboldining xotini hali juda yoshligini bilib oldik.

**-o'quvchi:** Abdug'aniboy o'ta boy bo'la turib, Sotiboldiga yordam bermaganligidan uning xasisligini bilsa bo'ladi. Vaholanki, o'zi “omborda qulab ketgan qoplar ostida qo'ib o'ladigan bo'lganida” qishloqdagi do'xtirxonaga ham qanoat qilmay, Farg'onadagi shifoxonada davolangan edi.

Darsning 3-sahifasida esa o'quvchilar e'tiborini xattaxtaga yozilgan “Bemor” hikoyasidan olingan ushbu jummalarga qaratiladi:

- *Osmon yiroq, yer qattiq;*

- *Bunday paytlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi;*

- *U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi.*

So'ngra o'quvchilarga bu jummalarni tahlil qilish vazifasini topshiriladi. Ular topshiriqni quyidagicha bajarishadi:

**-o'quvchi:** Bu maqol chorasiz qolgan odamlarga nisbatan qo'llanadi. Sotiboldi chorasiz, najotsiz qolgan inson edi.

**-o'quvchi:** Ikkinchi maqolda keltirilgan yo'g'on so'zini boylarga, ingichka so'zini kambag'al kishilarga nisbatan qo'llash to'g'ri xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi. Og'ir kunlarda boylar kambag'allashadi, Sotiboldiga o'xshagan kambag'allar esa butunlay sinadi.

**-o'quvchi:** Sotiboldi qiynalardi. Birinchidan, xotiniga rahmi kelib joni qiynalsa, ikkinchisidan, unga yordam berolmayotganidan, qo'li kaltaligidan vijdoni qiynalardi.

Darsning 4-sahifasida esa o'quvchilarni bahs-munozaraga jalb etish maqsadida ularga “Nega Sotiboldi xotinini ko'rsatgani do'xtirxonaga olib bormadi?”, “Tabib haqida qanday fikrdasiz?”, “Abdug'aniboyni qanday odam deb bilasiz?”, “Sotiboldining kam haq olishini

*qanday bildingiz?”, “Tashqarida gadoylar ovozi eshitalishining asarga qanday aloqasi bor?”* kabi savollar bilan murojaat qilinadi.

O'quvchilar javobi:

**-o'quvchi:** Chunki Sotiboldi kasal xotinini do'xtirga ko'rsatish uchun talab qilinadigan 25 so'm pulni tushida ko'rishi mumkin, xolos. Uning “orttirgan boyligi” bir marta tabib chaqirishga, bitta tovuq so'yishga, kasalni baxshiga o'qitishga yetadi-yu, tugaydi.

**-o'quvchi:** Bir amallab “tabib” nomini olgan bu kimsa ayolning qanday kasal bilan og'riyotganini bilmay turib, undan qon oladi. Buning oqibatida “betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib” qoladi. Demak, tabib bemorga foyda emas, balki zarar yetkazadi.

**-o'quvchi:** Abdug'aniboy boy, ammo o'ta xasis, ma'naviy qashshoq. Unga inson hayotidan 25 so'mlik pul afzal.

**-o'quvchi:** Sotiboldining kam haq olishi xotinini do'xtirga ko'rsatishga puli yo'qligidan yaqqol seziladi.

**-o'quvchi:** Tashqarida gadoylar ovozining eshitalishi o'sha davr kishilarining qashshoqligidan dalolat beradi. Bu bilan yozuvchi Sotiboldiga o'xshagan insonlar jamiyatning ko'p qismini tashkil etganligini ta'kidlamochi bo'ladi.

So'ngra o'quvchilar oldiga shunday savol qo'yiladi:

*“Nega asar aynan 4 yashar qizaloqning so'zlari bilan tugagan? Bu bilan yozuvchi nima demoqchi?”*

O'quvchilar javobi:

**-o'quvchi:** Bu - Sotiboldining chorasizligiga ishora.

**-o'quvchi:** Bola kelajak timsoli. Uning duosi orqali kelajakda jamiyatning rivojlanishini orzu qilish ma'nosi ifodalangan.

**-o'quvchi:** Norasida go'dakning yetim qolishini kitobxon qalbida to'laligicha his qildirish maqsadida keltirilgan.

Darsning keyingi 5-sahifasini “Diqqat! Muammo!” deb nomlanadi. Bu sahifada o'quvchilar oldiga *“Nega asar “Bemor” deb nomlangan?”, “Bemor dardining davosi nimada deb o'ylaysiz?”* kabi muammoli savollar qo'yiladi.

O'quvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajarishadi:

**-o'quvchi:** Asar Sotiboldining bemor xotini haqida bo'lganligi uchun “Bemor” deb nomlangan.

**-o'quvchi:** Sotiboldi yashagan davr kishilarining barchasi bemor. Ya'ni ma'naviy bemor. Tabib ham, baxshi ham, Abdug'aniboy va Sotiboldi ham- butun jamiyat bemor. Shu sababli hikoya “Bemor” deb nomlangan.

**-o'quvchi:** Sotiboldining xotinini davolash uchun malakali shifokor kerak. SHifokorga olib borish uchun pul kerak. Sotiboldiga o'xshagan oddiy insonlarda o'z ehtiyojiga yetgulik pul bo'lishi uchun esa jamiyat taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Jamiyatni taraqqiy qildirish uchun esa ilm-fan kerakdir!

O'quvchilar javobini tinglagach, ularni umumlashtirgan holda demak, “Bemor faqat Sotiboldining xotini emas, balki butun jamiyat bemor - xasta!”, “EI-u yurt dardini yengillatuvchi, jamiyatni bemorlikdan qutqaruvchi darmon esa ma'rifatdir” deb xulosa qilinadi.

So'ngra darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholanadi. Uyga vazifa sifatida “Bemor” hikoyasiga epigraf qilib olingan maqol bilan matn mazmunini solishtirib, aloqador jihatlarini aniqlashni topshiriladi.

“Bemor” hikoyasini o'rganishda, timsolarga – Sotiboldi timsoliga tavsif berishda **“KZIX”** (Kuchli jihatlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar, xavf-xatar) metodidan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. O'quvchilar to'rtta guruhga ajratiladi, har bir guruh tavsifga olinayotgan sub'ektning bir tomoni haqida ma'lumot beradi (boshqa guruhlariga qo'shimcha qilish imkonini berish mumkin). “Bemor” hikoyasidagi Sotiboldi timsoliga tavsif berish uchun qo'llangan **“KZIX”** metodi quyidagi bajarilishi kutiladi:

**K** (kuchli jihatlar) – Sotiboldi bilagida kuchi bor, 25-35 yoshlar chamasidagi (agar uning bitta qiz farzandi borligi inobatga olinsa) kishi.

**Z** (zaif tomonlari) – kambag'al, qo'lida arzugulik kasbi yo'q. Nochorlikdan, kambag'alikdan chiqishning aniq yo'llarini bilmaydi: sodda, ishonuvchan.

**I** (imkoniyatlar) – xalqimizda izlagan imkoniyat topadi, o'limdan boshqasining chorasi bor, kabi hikmatli so'zlar yuradi. Sotiboldi o'z xo'jayini Abdug'aniboyni insofga chaqirishi, undan moddiy yordam olishi yoki atrofidagi odamlardan ko'mak so'rashi mumkin edi-ku. Sotiboldining birorta ham do'sti yo'qmikan?!

**X** (xavf-xatar) – yosh qizchasining onasiz qolishi, oilada ayol – ona bo'lmasligi; bemorni tuzatish uchun olingan qarz oila kelajagini ham barbod qilishi, chunki qarz yangi qarzalarning tug'ilishiga sabab bo'lishi...

O'quvchilarning asar yuzasidan chuqurrov fikr yuritishlari, teran mushohada orqali hayot qiyinchiliklarini idrok etishlari, o'zlarida kurashuvchanlik, sobitlik, tushkunlikka tushmaslik kabi sifatlarni shakllantirishlari, eng muhimi, bugunning qadriga etib, istiqbol uchun o'qish, izlanish payida bo'lishlari – dars maqsadining reallashuviga asos bo'ladi.

**7-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" va "Dahshat" hikoyalarini o'rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan.** O'qituvchi darsning birinchi soatida har ikkala hikoya matnini o'quvchilarga tanishtirishi, avval o'zi keyin o'quvchilarga o'qitishi – hikoyalar syujetini

o'quvchilar obdon o'zlashtirishlariga erishishi maqsadga muvofiqdir. Keyingi 2 soat (1 soatdan) hikoya tahliliga, matn ustida ishlashga bag'ishlanadi.

“O'g'ri” hikoyasi matni ustida ishlashni quyidagicha tashkil qilish mumkin. Darsning maqsadi Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi asosida o'quvchilarda o'zgalar baxtsizligi evaziga kun ko'ruvchi manfaatparast kimsalarga nafrat, zulmga isyon hissini shakllantirish, asardagi obrazlarni tahlil qilish, yozuvchining so'z qo'llash mahorati va istiqloq mohiyatini anglatishdan iborat.

Darsga Cho'lponning "Ko'ngil" she'ridan ushbu band shior qilib olindi:

...Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen buncha sustlashding?  
Haqorat dilni og'ritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
...Tiriksen, o'Imagansen,  
Sen-da odam, sen-da insonsen..."

O'qituvchi darsni boshlashdan avval sinfdagi o'quvchilarni guruhlariga ajratadi. Har bir guruh o'z vazifalariga ko'ra shior tanlaydi. Masalan, quyidagicha:

**Insonparvarlar guruhi:** "Odamlarning eng aziz va hurmatlilari qayg'u, hasrat-u tashvishli damlarda bilinur, go'yoki bu tashvishlar ular (hurmatli kishilar) uchun tug'ishgan opa-singildek yaqindir"(Zamaxshariy).

**“Yosh aktyorlar” guruhi:** "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas " (Abdulla Qahhor).

**Izquvarlar guruhi:** "*Faqat insonni sevish orqaligina adolatparvar bo'lish mumkin*"(I.Kant).

**“Yosh rasomlar” guruhi:** "*Odamlar, insonparvar bo'ling! Bu sizning birinchi burchingiz*" (J.J. Russo).

**Munaqqidlar guruhi:** "*Ijod bog'iga bolta emas, tokqaychi ko'tarib kirish kerak*"(Ozod Sharafiddinov).

**“Til bilimdonlari” guruhi:** "*So'z - hikmat, so'z - qurol*"(Maqol).

Dars skarabey interfaol usulda olib boriladi. Bu usul o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy aloqadorlik va xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O'qituvchi bugungi dars mavzusi o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, mashhur hikoyanavis, qisqa so'zda ko'p ma'no ifodalash mahorati egasi Abdulla Qahhor va uning "O'g'ri" hikoyasi haqida ekanligini ma'lum qiladi va dars davomida bilimlarni baholash tartibi bilan tanishtiradi. Har bir to'g'ri, mantiqli javob uchun rag'bat kartochkasi berilishini aytadi.

Ekspert guruhi javoblarni kuzatib borib, eng yaxshi ishtirokchi va eng faol guruhni aniqlashi, g'olib guruh faxrli "Qahhorshunoslar" nomiga ega bo'lishini e'lon qiladi.

O'quvchilar hikoyaga tarbiyaviy, ilmiy jihatdan yondoshmoqlari, san'atkor sifatida o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirmoqlari lozimligi uqtirildi. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq.** Yozuvchi hayotiga oid ma'lumotlarni to'ldiring.

1. AbduQahhor...-----
2. 1925-yil...-----
3. 25-may...-----
4. ... gazetasida ishladi.
5. ... eski maktabda o'qidi.
6. Ko'chgan qishloqlari:---
7. 17-sentyabr...-----
8. Oqqo'rg'onda...-----
9. 1930-yilda...---
10. ...o'qituvchilartayyorlash kursida o'qidi.
11. 1934-yiIi-----
12. "Qo'shchinor chiroqlari"-----
- 13.-----oybitigida, ....gazetalarida xabarlar bosildi.
14. Ijodi-----
15. 1958-yilda-----
16. Shuhrat keltirgan roman---
17. 1965-yilda-----
18. "Ayajonlarim" komediyasi---
19. Komediya... 1962-yilda-----
- 20."Muhabbat" qissasi-----

**2-topshiriq.** Quyidagi gaplarni kim aytganligini aniqlang, munosabat bildiring.

1.Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

2. - Endi bizga qiyin bo'ldi-da... Peshonam sho'r bo'lmasa, ...
3. - Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?



4. - Ey, yosh bolamisiz? Nega yig'laysiz? Kap-katta odam...
5. - Ha, ho'kizni uylariga eltib berishsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da.
6. - Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.
7. Birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi..... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi.

**3-topshiriq.** "O'g'ri" hikoyasidagi quyidagi obrazlaiga qisqacha tavsif bering. Masalan:

1. *Qobil bobo*: Yoshi ulug', kampiri bilan zo'rg'a kun kechiradi. Ho'kizining yo'qolganiga juda qayg'uradi, uni topish niyatida mansabdorlarga pora berib, bor-budidan ayriladi.

2. *Kampir*:

3. *Ellikboshi*:

4 *Amin*: ,

5. *Tilmoch*:

6. *Pristav*:

7. *Egamberdi*:

8. *Odamlar*:

**4-topshiriq.** "O'g'ri" hikoyasidagi berilgan poralarni aniqlang. Masalan:

1. Ellikboshi: mingboshiga 700 bog' beda, bir toy paxta bergan.

2. Azaimxonga:


3. Tilmochga:

4. Pristavga:

5. Aminga:

7. Egamberdiga:

**5-topshiriq.** Boshqotirma. Doiralar ichiga Abdulla Qahhor asarlari nomlarini yozing. O'quvchilar adib asarlarini dora ichiga joylashtirish barobarida, asrning qaysi janrga mansubligini ham aytib beradilar. Masalan, "O'g'ri" – hikoya, "Sarob" – roman ...



Navbatdagi topshiriq — qisqa vaqt ichida har bir guruh o'z vazifasidan kelib chiqib, matn ustida ishlash.

Bunda o'quvchilarning asarni tahlil qilib, matndagi tagma'noni ilg'ashlari, badiiy haqiqatlarni ko'ra olish salohiyatlari alohida rag'batlantirildi. Matnni idrok etish uchun ushbu savollar beriladi:

1. Kampirning dodlashiga nega odamlar tez to'planishdi?
2. Nega chol dag'-dag' titraydi? Sovuqdanmi?
3. Amin hamisha ham o'zini shunday tutarmikin?
4. Nega bu hikoyaga yozuvchi "Otning o'limi - itning bayrami" maqolini epigraf qilib olgan?
5. Asosiy qahramonning Qobil bobo deb atalishida qanday ma'no bor?
6. Hikoya nima uchun "O'g'ri" deb nomlangan?
7. O'g'ri muallif nazarida kim?
8. Qobil boboning uyiga o'xshagan uylarni ko'rganmisiz?
9. Voqea qaysi faslda bo'lib o'tgan?
10. Hozirgi kunda bunday voqea sodir bo'lishi mumkinmi? Agar bo'lsa, nima chora ko'riladi?

Matn ustida ishlashdan avval o'qituvchi quyidagilarni ta'kidladi: *"Abdulla Qahhor: "Biron hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini bildirish bilan unga nisbatan nafrat yoki muhabbat hissi tug'dirish orasida juda katta farq bor. Bilgan kishi bilib qo'ya berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo'ya bermaydi",-der edi. Shunday ekan, bo'layotgan voqealarni his qilib, qahramonlaming o'rniga o'zingizni qo'yib ko'rgan holda fikrlang, tahlil qiling"*.

Asar ustida ishlashda har bir guruh o'z zimmasiga olgan vazifalari yuzasidan quyidagilarni havola etadi:

**“Yosh aktyorlar” guruhi:**

“O’g’ri” hikoyasi asosida kichik sahna ko’rinichini namoyish etadilar. Asar voqealarida o’quvchilarning (aktyor sifatida) ishtiroki, hikoya mazmunini o’zlashtirilishiga amaliy yordam beradi.

*Kampir: O! ... Voydod, voydood! (Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan yugurib chiqadi. Odamlar yig'iladi)*

*Odamlar: Voy bechoralar, ho'kiziga o'g'ri tushibdi....., Endi qanday kun kechirishadi?'*

*(Qobil bobo og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, lekin hech kimni ko'r-maydi)*

*Xotinlar: Hmm... iloyo o'g'irlagan qo'ling sinsin!.... Topgan puling teshib chiqsin, o'zingga buyurmasin!. Qariyalarning uvoli tutsin!*

*Kimdir: Nahotki shu kichkina teshikdan ho'kiz siqqan bo'lsa.....*

*Aql bovar qilmaydi-ku!*

*Ellikboshi (Hamma yoqni tekshirib, pang tovush bilan): Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. Qobil bobo (sevinganidan xo'rliigi kelib, yig'lab): Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...*

*Odamlar: O'g'ri devorni yarim kechada teshgan bo'lsa kerak... Poytesha o'tkir bo'ladi yoki lo'm bilan urib teshgan. Ho'kizni uzoqroqdagi bozorda pullasa kerak.... Balki allaqachon so'yib yuborgandir...*

*Ellikboshi (ketidan ergashib, yig'layotgan boboga): Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi. Kampir: Ilohim, umringizdan baraka toping...*

*Qobil bobo: Sizni xudoning p'zi yarlaqasin! Dunyo turguncha turing! (hamyonidan pul chiqarib beradi)*

*Ellikboshi: Bu haqda beto'xtov aminga xabar qilaman. (Parda yopiladi)*

**“Yosh rassomlar” guruhi:**

“O’g’ri” hikoyasi qahramonlari aks etgan rasmlarni qo’lda chizish va izohlash. Guruh a’zolarining asar voqealarini rasmlar orqali qayta jonlantirishlari, izoh berishlari o’quvchilarning asarni puxta o’zlashtirishlariga amaliy yordam beradi.

- orqa tomononi teshilgan og’ilxona rasmi;
- Qobil bobo va kampining ayanch holat tasviri;
- Qobil bobo va ellikboshi tasviri;
- Qobil bobo va amin tasviri;

- Qobil bobo va pristav tasviri;
- Pora uchun berilgan: pul, tuxum, yarim qop jiyda, jo'xori, ikki kalava ip, uchta tovuq, kulangir tasvirlari.

**“Til bilimdonlari” guruhi:**

Guruh a'zolari hikoyadagi: *, Otning o'limi, itning bayrami, dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin, qozonni suvga tashlash, uyi xatga tushdi, tekinga mushuk oftobga chiqmaydi, pulning yuziga qarash aqldan emas, fuqaroning arzga borishi arbobning izzati, tepa sochi tikka bo'ldi, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan, o'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan, “kichkinagina shart” kabi maqol, ibora hamda dialoglardagi o'zaro muomala jarayonlarini tadqiq qiladilar, sharhlaydilar, munosabat bildiradilar.*

**Munaqqidlar guruhi:**

Guruh a'zolaridan yozuvchining uslubiga, badiiy mahoratiga tavsif berish, adibning so'zga xasis, fikrga saxiy ekaniga urg'u berishlari so'raladi.

**Izquvarlar guruhi:**

Guruh a'zolari o'g'rining izidan tushadilar. Voqealarni taftish qiladilar. Qobil boboning o'sha davr amaldorlari qoshida kamsitilishi va bor-budidan ajralib, qarzga botishi, hatto hali olinmagan hosili ham Egamberdi paxtafurushga berilib, xonavayron bo'lishining sabablarini topishga, haqiqiy o'g'rilarni qo'lga tushirishga harakat qiladilar. Izquvarlar guruhi a'zolarining yakuniy xulosasi – tekshirishlarining echimi asar g'oyasining ochilishiga, darsdan ko'zlangan maqsadning bo'y ko'rsatishigi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi guruh a'zolarini qo'llab-quvvatlab turadi, konseptual savol va topshiriqlar berib, ishning samarali yakun topishiga yordam ko'rsatadi.

**Insonparvarlar guruhi:**

Guruh a'zolaridan Qobil bobo va u kabi kishilarning bunday ayanch holati sabablari, inson qadri har narsadan ulug' ekani, bugungi nurafshon kunlarda inson manfaatlari yo'lida qilinayotgan ezgu ishlar, ayniqsa, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor maqom tutganligi, bugun o'g'ri bo'lgan emas, to'g'ri bo'lgan odam saodatga erishishi haqida yorqin fikrlar bildirishlari so'raladi.

**Ekspert guruhi** guruhlar bergan javoblarni o'qituvchi hamkorligida sarhisob qiladi, guruhlar qo'lga kiritgan rag'bat kartochkalarini hisoblaydi, shu tariqa eng faol guruh aniqlanadi. O'qituvchi darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni ma'naviy rag'batlantiradi, ularni ilm olishga, kasb-hunar egallashga, xalq xizmatida bo'lishga chorlaydi, bilimlar reyting asosida belgilanib rasmiylashtiriladi.

“Dahshat” hikoyasi o‘qib o‘rganilganildan so‘ng, dars oxirida hikoya janri haqidagi nazariy bilimlari qayta yodda solinadi, mustahkamlanadi. Ma’lumki, o‘quvchilar hikoya janri haqida 5-sinfda, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi o‘rganilganildan so‘ng tanishgan edilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, endi hikoya janri haqida birmuncha to‘liqroq ma’lumot berishga kirishadi.

**Hikoya janri** hajman ixchamligi, shakl va mazmun, kompozitsion qurilishi, til uslub va boshqa poetik unsurlar originalligi bilan g‘oyaviy-emotsional qiymat kasb etadi... Bu kichik janrning poetik imkoniyatlari kattadir. Hikoya uchun voqeani quruqdan-quruq so‘zlab berish emas, balki obrazlar, ramzlar, badiiy detallar vositasida xarakter yaratish muhimdir. Hikoya – inson tafakkuriga bir zarb bilan tezda muhrlanadigan, go‘zal poetik shakl qurilishiga ega adabiy hodisa sanaladi. Hikoya bamisoli o‘z o‘rnida topib aytilgan qanotli ibora, frazeologik birlik, bir gapga joylangan hikmat.

... O‘zbek yozuvchilari ham ixcham, ramzlari, tasvirlari quyuq hikoyalarida o‘zbekona xarakter yaratishdi. Oz so‘z bilan ko‘p ma’nolarni anglatgan Abdulla Qahhor hikoyalari, shoirona nigoh mujassam topgan g‘afur g‘ulom nasri, said Ahmadning hajviy hikoyalari o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitdi. Hatto keyinchalik o‘tmish mavzuidagi hikoyalar, xususan “O‘g‘ri” turli adabiy talqinlar, bahs-munozaralar ob’ekti bo‘ldi. Hokisor va donishmand adib mirkarim Osimning tarixiy hikoyalari milliy o‘zlikni anglashga, mumtoz olim va fozillar ajdodlar shaxsiyatini avlodlarga tanitishga xizmat etdi...<sup>1</sup>

Bahodir Karim  
Filologiya fanlari doktori

Epik asarlarni janrlarga ajratishda, tabiiyki, hajm mezon bo‘lolmaydi. Zero, ayrim hikoya yoki romanlar hajman qissalarga yaqin boiishi va aksincha holatlar kuzatilishi mumkin. Biroq odatda, hikoya, qissa va romanlar hajmi sanoqdagi tartibga mos tarzda kattalashib borishi ham inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqatdir.

Epik janrlar bir-biridan badiiy shakl xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Masalan, syujet nuqtai nazaridan olinsa, roman ko‘p planli murakkab syujetga egaligi, qissa syujeti asosan bosh qahramon tevaragida uyushishi, hikoya syujeti odatda bitta yoki bir-biriga uzviy bog‘liq bir necha voqea asosiga qurilishi kuzatiladi.

***Hikoya, qissa va roman eposning asosiy janrlari sanaladi. Shu bilan birga, epik turning asosiy bo‘lmagan qator janrlari ham mavjud. Ularni hayotni badiiy qamrash ko‘lami jihatidan quyidagi tartibda tasniflash mumkin:***

---

<sup>1</sup> XX asr ўzbek хикояси антологияси. –Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти”. 2009, 3- 4-бетлар.

**1) kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse;**

2) o'rta epik shakllar: qissa (povest)

3) katta epik shakllar: epos, epik doston, roman, epopeya Yuqoridagi tasnifga ayrim izohlarni kiritib o'tish darkor. Masalan,

badia, etyud, ocherk kabilar sof badiiy proza namunasi bo'lmay, badiiy-publisistik janrlar sanaladi. Yoki hozirgi adabiyotda ommalashib borayotgan esse janri, birinchidan, badiiy-publisistik xarakterga egaligi, ikkinchidan, hajm e'tibori bilan turlicha ko'rinishlarga egaligi (kichik hikoya shaklidan to katta roman shakligacha) bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>.

Hikoya –yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqea va hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nariy asar. Unda bir yoki bir necha qahramonlar ishtirok etib, hayotiy yoki xayoliy hodisalarning muhim bir jihati tasvirlab beriladi.

O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zamov kabi yozuvchilar hikoya janrining ustalari sifatida e'tirof topganlar.

Ayniqsa, Abdulla Qahhorning “O'g'ri”, “Bemor”, “Anor”, “Boshsiz odam” kabi qator hikoyalari o'zbek adabiyotidagi hikoya janrining mumtoz namunalari hisoblanadi<sup>1</sup>.

O'zbek adabiyoti tarixida ham hikoya janrining o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor. Alisher navoiyning “Xamsa”sidagi hikoyatlar yoxud Poshshoxo'janing “Miftohul-adl” va “Gulzor”ida keltirilgan hikoyatlar... o'zbek hikoyachiligining o'tmishdagi namunalaridir... Yozuvchi Abdulla Qahhor o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos maktab yaratgan san'tkordir<sup>2</sup>.

Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi 13-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi - 2012» ko'rik-tanlovining ona tili va adabiyot fani bo'yicha g'olibi Sanobar Abdurahmonovaning “Til va adabiyot ta'limi” jurnalining 2012-yil 6-sonidagi “Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasini o'rganish usullari” nomli metodik maqolasini “O'g'ri” hikoyasini o'rganish yuzasidan yana bir tajriba deb baholash mumkin. Maqola muallifi dars tafsilotini quyidagicha yoritadi.

Dars maqsadi:

**1) ta'limiy maqsad:** Abdulla Qahhor hayoti va ijodi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarni “O'g'ri” hikoyasi mazmuni bilan tanishtirish; ularga asarda

---

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T: Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 115-bet.

<sup>1</sup> ADABIYOT 5-sinf, I qism. – T: “SHARQ”, 2011, 145-bet.

<sup>2</sup> Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. –Т: “Ўқитувчи”. 1979, 200-бет.

qoralangan poraxo'rlik, ikkiyuzlamachilik, oddiy xalq haq-huquqlarining toptalishi kabi illatlarni tushuntirish; asardagi obrazlar olami, xarakterlar badiiyligi va hayotiyiligi darajasini anglatish;

**2) tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda o'zaro hamkorlik tuyg'ularini shakllantirish, o'z haq-huquqini bilish va himoya qila olish kabi xislatlarni rivojlantirish;

3) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.


**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi va nazorat qiluvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: «Ortiqchasini toping», «Ikki xil talab», «Uch bo'lakli matn», «Falsafa», «Kim gapirdi?», «Teskari test».

Darsda foydalaniladigan jihozlar: 7-sinf adabiyot darsligi, portret, A.Qahhor asarlari, internet ma'lumotlari, slaydlar, oq qog'ozlar, markerlar, plakatlar, magnit xattaxta, «Bilimlar qasri» musobaqa plakati, texnologik xarita, adibning ibratli fikrlari, rag'bat kartochka-lari (bir tomonida buyuk allomalarning ibratli fikrlari, ikkinchi tomonida ularning suratlari). Darsning borishi:

Dars musobaqa usulida tashkil qilinadi. O'quvchilar «Ma'naviyat», «Ma'rifat» va «Madaniyat» guruhlariga ajratiladi. Ularga «Bilimlar qasri»ning yo'llariga qo'yilgan soqchilarning sinovidan o'tish uchun quyida berilgan topshiriqlarni o'zaro hamjihatlikda bajarishlari va qasrga birinchi bo'lib kirish uchun astoydil harakat qilishlari kerakligi tushuntiriladi.

Dars adib Abdulla Qahhorning quyidagi so'zlari bilan boshlanadi (1-slayd):



Shu o'rinda «2012-yil - Mustahkam oila yili» ekanligi ham eslatib o'tiladi. So'ngra o'quvchilar dars rejasi bilan tanishtiriladi (2-slayd).

Dars rejasi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

- \* “Ortiqchasini toping” usuli.
- \* “Ikki xil talab” usuli.
- \* Adib hayotiga oid rasmlar izohi.

2. Yangi mavzu bayoni:

- \* “Uch bo'lakli matn” usuli.

3. Yangi mavzuni mustahkamlash:

- \* “Falsafa” usuli.
- \* “Kim gapirdi?” usuli.
- \* “Teskari test” usuli.....
- \* Adibning badiiy mahorati

Uyga vazifa.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

a) “Ortiqchasini toping” usuli yordamida o'quvchilarning o'tilgan darsda olgan bilimlari sinab ko'riladi. Ushbu usul shartiga ko'ra, 3-slaydda o'quvchilarga Cho'lpon hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar Abdulla Qodiriy, Maxtumquli, Abdulla Qahhor kabi adiblar ijodiga oid ma'lumotlar bilan aralash holda beriladi. Agar imkoniyat bo'lsa, ular bu topshiriqni kompyuterda, bo'lmasa, oq qog'ozlarda bajarishlari mumkin.

“Ortiqchasini toping”.

Andijon; «Ko'ngil»; Temirchi; «Dahshat»; «Binafsha»; 1894-yil; «Sarob»; Ko'chim; «Sinchalak»; «Yorqinoy»; 1968-yil; she'r; adib; «Ayajonlarim»; Oysha aya; Yaypan; Samarqand; «Kespa va kunduz»; «Shohiso'zana»; 1925-yil; Ballada; «Buzilgan o'lkaga»; hikoyanavis; 25-may; Farg'ona; «Mehrobdan chayon»; Oqqo'rg'on; 13-ryul; AbduQahhor; 1903-yil; Buvayda; savdogar; 5 ta til bilimdoni; qasida.

b) «Ikki xil talab» usuli yordamida guruhlardan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning she'rlari yoddan so'raladi. Bu shartga ko'ra har bir guruhdan xattaxtaga chiqqan o'quvchi Cho'lpon she'rlaridan birini yoddan ifodali o'qish bilan bir vaqtda xattaxtaga Vatan tasvirini chizishlari kerak

bo'ladi. Albatta, bir vaqtning o'zida ham ifodali she'r o'qish, ham rasm chizish o'quvchidan diqqatni bir joyga yig'ish va hayajonlanmaslikni talab qiladi. Har bir o'quvchiga 2 daqiqadan



vaqt beriladi va shu vaqt ichida ular chizgan tasvirlardagi detallar sanaladi, o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Yangi mavzu bayoni:

4-slaydda Abdulla Qahhor ijodiga oid rasmlar beriladi va o'quvchilardan 6-sinfda yozuvchi faoliyati haqida o'rgangan bilimlarini esga olishlari so'raladi. O'qituvchi qo'shimcha ma'lumotlar asosida mavzuni tushuntiradi va mustahkamlaydi.

Adib ijodidan lavhalar:



“Uch bo'lakli matn” usuliga tayangan holda guruhlariga “O'g'ri” hikoyasi matni uch qismga ajratib beriladi. O'quvchilar matn bilan tanishadilar va uning mazmunini bir-birlariga yetkazadilar. Bunday usul qisqa vaqt ichida hikoya matni bilan tanishish imkoniyatini beradi.

**“O'g'ri” hikoyasi** hikoyasini o'rganish matn ustida ishlashdan boshlanadi. O'qituvchi hikoya matnini guruhlariga taqsimlaydi va har guruhdan matnni ifodali o'qish, mazmunini so'zlab berish, matndagi eskirgan va tarixiy so'zlarning ma'nosini izohlash kabi vazifalarni topshiradi.

**“Ma'naviyat”** guruhiga: (jurnalda har guruhga berilgan hikoya mati to'liq berilgan, biz qisqartirib beryapmiz)

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

**“Ma'rifat” guruhiga:**

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz...

...Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

- Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

### **“Madaniyat” guruhiga:**

Qobil bobo yor-do'stlar bilan kengashdi - pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Malum bo'ldiki, uni begim deguncha ishining beli sinar ekan...

...Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi - Egamberdi paxtafitirushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini hay dab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin “kichkinagina” sharti bor. Bu shart kuzda malum bo'ladi...

### **Yangi mavzuni mustahkamlash:**

O'quvchilar hikoya matni mazmuni bilan tanishganlaridan so'ng «Falsafa» usuli yordamida yangi mavzu mustahkamlanadi. Guruhlar o'zaro hamkorlikda ho'kizning o'g'irlanish sabablari, uni topish uchun chol-kampir va amaldorlar tomonidan ko'rilgan choralar, natija qanday bo'lganligi va oxir-oqibat, o'g'rining kirn ekanligini bahs-munozara asosida aniqlaydilar. (Bu topshiriqni qog'ozga yozish orqali bajarsa ham bo'ladi).

**“Kim gapirdi?”** usuli yordamida har uchala guruhga alohida hikoya qahramonlarining (amin va pristav) nutqi yozilgan audiotasma eshittiriladi va ular bu nutq qaysi qahramonga tegishli ekanligini topadilar.

*“Ma'naviyat” guruhiga:*

- O'zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! (Aminning nutqi).

*“Ma'rifat” guruhiga:*

- Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi! (Aminning nutqi).

*“Madaniyat” guruhiga:*

- Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam...Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! Men qay-natamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi? (Ellikboshining nutqi).

**“Teskari test”** usuli o'quvchilarni mavzu asosida mustaqil savol tuzishga o'rgatadigan, mantiqiy fikrlash doirasining kengayishiga yordam beradigan, aqlini charxlaydigan samarali usuldir. Bunda o'quvchilar e'tibori 6-slaydga qaratiladi. Unda test javoblaridan biri belgilangan bo'lib, o'quvchilar shu javobga mos savol tuzishlari talab qilinadi.

1-savol. Mashhur hikoyanavis, qisqa so'zda ko'p ma'no ifodalash mahorati egasi bo'lgan ijodkor nomi qaysi qatorda berilgan?

a) Maxtumquli b) A.Qodiriy

c) Cho'lpon d) A.Qahhor

2-savol. Abdulla Qahhorning bolalik xotiralari qaysi shahar bilan bog'liq?

- a) Toshkent b) Samarqand
- c) Qo'qon d) Jizzax

3-savol. Abdulla Qahhor qalamiga mansub bo'lmagan asarni belgilang.

- a) “Qo'shchinor chiroqlari”
- b) “O'tmishdan ertaklar”
- c) “Og'riq tishlar”
- d) “Xalq”

4-savol. Abdulla Qahhor qaysi janrda ijod qilmagan?

- a) latifa b) roman
- c) qissa d) hikoya

Yangi mavzu o'qituvchi tomonidan ushbu fikrlar asosida xulosalanadi (6-slayd):

Adibning badiiy mahorati:

- So'z ustasi;
- Soddalik va tushunarlilik;
- Epigraf qo'llash san'ati;
- Xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli foydalanish;
- Ixchamlik va aniqlik;
- Hayotiy voqelik;
- Dolzarb muammolar;
- O'tkir fikrlar;

#### **Baholash va rag'batlantirish:**

O'quvchilarning yiqqan ballari jamlanadi va izohlanadi. G'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchi “Dars qiroli” etib saylanadi. Boshqa ikki guruhdan ham eng faol ishtirok etgan va eng ko'p rag'bat yiqqan o'quvchilar “O'ngqo'l vazir” va “Chapqo'l vazir” etib saylanadi, ularga alohida sovg'alar ham berish mumkin (M: A. Qahhor kitoblaridan).

Uyga vazifa:

O'quvchilarga “O'g'ri” hikoyasi asosida rasm chizish va asar qahramonlaridan biriga maktub yozish topshirig'i beriladi.

Izoh: Agar qo'shimcha vaqt qolsa, darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilarni quyidagi test savollari yordamida baholab qo'yish mumkin.

Tavsiya etilayotgan “Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasini o'rganish usullari”, avvalo, muallifning ijodkorligidan, izlanuvchanligidan yorqin dalolat beradi. Ayni paytda muallifning tavsiya etayotgan bu usuliga jiddiy e'tirozlarimiz bor:

1. **“Ortiqchasini toping”** usuli yordamida o'quvchilarning o'tilgan darsda olgan bilimlari sinab ko'riladi. Ushbu usul shartiga ko'ra, 3-slaydda o'quvchilarga Cho'lpon hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar Abdulla Qodiriy, Maxtumdul, Abdulla Qahhor kabi adiblar ijodiga oid ma'lumotlar bilan aralash holda beriladi. Agar imkoniyat bo'lsa, ular bu topshiriqni kompyuterda, bo'lmasa, oq qog'ozlarda bajarishlari mumkin, deyiladi va quyida asarlar aralash holda berilgan. Lekin kimning asari **ortiqcha**, nima uchun **ortiqcha** so'zi ishlatilyapti? “Ortiqcha” so'zi – keraksiz, zaruratsiz kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Bizningcha, muallif bu o'rinda “Kim zukko?”, “Asar muallifini toping”, “Biz topqirmiz” kabi nomlash asosida o'quvchilar tafakkuri charxlaganda, aralash berilgan adiblar asarlari xoslanganda soz bo'lar edi.
2. “Uch bo'lakli matn” usuliga tayangan holda guruhlariga “O'g'ri” hikoyasi matni uch qismga ajratib beriladi. O'quvchilar matn bilan tanishadilar va uning mazmunini birlariga yetkazadilar. Bunday usul qisqa vaqt ichida hikoya matni bilan tanishish imkoniyatini beradi,- deydi maqola muallifi,- va hikoya matnini “Ma'naviyat”, “Ma'rifat”, “Madaniyat” guruhlariga taqsimlaydi. **Bu topshiriq yuzasidan e'tirozlarimiz shuki**, birinchidan, “O'g'ri” hikoyasi o'zi shaklan qisqa yozilgan, uni ifodali o'qish uchun 5-6 daqiqa etarli. Har bir guruh o'ziga berilgan hikoya qismini o'qib, boshqa guruh o'quvchilariga uning mazmunini “etkazish”lari uchun kamida 10-12 daqiqa vaqt ketadi. Chunki “Ma'naviyat” guruhi o'zi o'rgangan hikoya bo'lagini ham “Ma'rifat”chilarga, ham “Madaniyat” guruhi a'zolariga tushuntirishlari kerak bo'ladi. Va, albatta, u guruh o'quvchilari ham bu vazifani ado etishlari zarur. Aks holda hikoya butunlik hosil qilmaydi. Ikkinchidan, guruhlar matnini o'qib qo'yish bilangina cheklanadilar. Holbuki guruhlar matnini tahlil qilishlari, u yuzasidan savol va topshiriqlar tuzishlari – taqdimot o'tkazishlari zarur bo'ladi.
3. **“Kim gapirdi?”** usuli yordamida har uchala guruhga alohida hikoya qahramonlarining (amin va pristav) nutqi yozilgan audiotasma eshittiriladi va ular bu nutq qaysi qahramonga tegishli ekanligini topadilar, deb topshiriq berilgan. Guruh a'zolari shartga muvofiq berilgan nutqiy parchaning egasini topadilar. Masalan, O'zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! (Aminning nutqi). O'quvchilarning nutq egasini topishi, “Bu -Aminning nutqidan” deyishi – yaxshi. Lekin o'quvchi shu bilan kifoyalanib qolmasligi, berilgan nutqni tahlil qilishi, asar timsolining xarakterini belgilashda bu nutqning tutgan o'rnini aniqlashi, unga munosabat bildirib, bunday o'rinda qo'llanishi zarur bo'lgan nutqiy muloqotni misol keltira olishi – asosiy yutuq hisoblanadi.

4. **“Teskari test”** topshirig‘i ham “Test sinovi” nomi bilan yoki “Test –aql sinovi” nomi bilan berilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki testlar amaliyotda o‘ng testlar, teskari testlar deb xoslanmaydi. Bundan tashqari, “teskari” so‘zini bu o‘rinda qo‘llash fikriy g‘alazlik keltirib chiqaradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ta’lim jarayoniga kiritilayotgan har bir so‘z, o‘yin, savol, topshiriq , didaktik xarakter kasb etishi, konseptual mazmunga ega bo‘lishi, dars istiqboli uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi juda muhim pedagogik talablar sirasiga kiradi.

Abduila Qahhorning “Dahshat” hikoyasi umumta’lim maktablarining 7-sinfida o‘rganiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 7-sinfda “O‘g‘ri” va “Dahshat” hikoyalarini o‘rganish uchun o‘quv rejada 3 soat vaqt ajratilgan. O‘qituvchi darsning irinchi soatida har ikki hikoya matni bilan o‘quvchilarni tanishtiradi: ifodali o‘qiydi, sinf o‘quvchilar navbati bilan o‘qiydilar – asar matni bilan tanishadilar. Keyingi 2 soat bir soatda taqsimlanib, alohida-alohida “O‘g‘ri” va “Dahshat” hikoyalari ustida ishlanadi. “Dahshat” hikoyasi ustida o‘tkaziladigan darsni quyidagicha tashkil qilish mumkin.

#### **“Dahshat” hikoyasini o‘rganish.**

##### **Darsning maqsadi:**

a) **ta'limiy maqsad:** “Dahshat” hikoyasini o‘qish, hikoya matni ustida ishlash, o‘quvchilarning hikoya asosida olgan bilimlarini mustahkamlash;

b) **tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ongiga mardlik, sadoqat, ezgulik kabi fazilatlarni singdirish, har tomonlama sog'lom va barkamoi etib tarbiyalash;

d) **rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarning ma'na-viy-ma'rifiy qarashlarini, insoniy fazilatlarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** “Raqamlar tilga kirganda”, “Aql charxi”, “Debrifing”.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** A. Qahhor portreti, adibning hikoyalari to‘plami, kompyuter, proyektor, kitoblar, tarqatmalar.

##### **Darsning borishi:**

Dars o‘qituvchining quyidagi fikrlari bilan boshlanadi: Yurtimizning har bir farzandi to‘rt fasli mo‘tadil, yeriga cho‘p qadalsa ham ko‘karib, daraxtga aylanadigan jannatmakon Vatanda yashayotganidan faxrlanishi lozim. Bugun darsimizda A. Qahhorning o‘tmishdan so‘zlovchi hikoyalari bilan tanishamiz va ajdodlarimizga armon bo‘lgan hurlik baxti, momolarimizga nasib etmagan ozodlik saodatiga musharraf bo‘lganimizga, qalbimizda cheksiz iftixor tuyg‘ulari jo‘sh

urgan bir paytda yonimizda ota-onamiz, yaqinlarimiz, bag'rikeng va bepoyon Vatanimiz borligiga shukur qilamiz va bu kunlarning qadriga yetishga intilamiz.

Shundan keyin o'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar, dars musobaqa usulida olib boriladi. Har bir guruhga o'qituvchi bo'sh guidon qo'yib chiqadi va o'quvchilarni dars davomida gullar bilan rag'batlantirib boradi.

O'quvchilardan uyga vazifa so'raladi.

**1. “Raqamlar tilga kirganda” usuli.** Bu usulda o'quvchilar Abduila Qahhorning hayoti va ijodiga doir quyida berilgan yillar va sanalar ro'parasiga shu sanada ro'y bergan voqealarni yozadilar:

**1907-yil 17-sentabr-** yozuvchi tug'ilgan sana.

**1917-yil** - adib oilasi bilan Qo'qonga ko'chadi.

**1922-1924-yillar** - adib Qo'qondagi o'qituvchilar tayyorlash texnikumida o'qidi.

**1930-yil** - hozirgi O'zMUning pedagogika fakultetini tugatdi.

**1934-yil** - «Sarob» romani yozildi.

**1951-yil** - «Qo'shchinor chiroqlari» romani yozildi.

**1962-yil** - «Tobutdan tovush» komediyasi yaratildi.

**1965-yil** - «O'tmishdan ertaklar» qissasi yozildi.

**1967-yil** - «Ayajonlarim» komediyasi yozildi.

**1968-yil** - «Muhabbat» qissasi yozildi.

**1968-yil 25-may** - yozuvchi vafot etdi.

**O'quvchilar e'tiboriga 1-slayd havola etiladi:**

*Abduila Qahhor adabiyotning shunchaki bir vakili bo'lmagan, uni adabiyotning posboni edi, deb atash to'g'ri bo'ladi. Adib quymalikning, qisqalikning, asarni ayamay o'chirish, «faqat kitobxonga zarur gaplarnigina qoldirish»ning tarafdori edi. «Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo'lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo'yar edim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli ekaniga bog'liqdir», - degan edi Abdulla Qahhor.*

Abduila Qahhorning vatanparvarligini, adabiyotga bo'lgan munosabatini uning mana shu fikrlaridan ham bilib olish mumkin.


O'quvchilarning quyi sinflarda ham Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqida bilimga ega bo'lganliklarini inobatga olib, bilimdonlik sinoviga jalb etiladilar. O'quvchilar “Klaster” usulida yoki “Doiralarni to'ldir” usulida ozlarining adib hikoyalarini nechog'lik bilishlarini namoyon etadilar.

**2-slayd.** Bunda o'quvchilar e'tiboriga **“Doiralarni to'ldir”** usuli havola etiladi. Unda tasvirlangan doiralarni ichiga o'quvchilar A. Qahhorning hikoyalarini yozib chiqadilar. Ushbu shart bajarilgach, monitorda to'g'ri javob ko'rsatiladi.

Shundan so'ng o'qituvchi adibning bir-biridan qiziqarli, tarixiy, hajviy, zamonaviy voqealarni o'zida aks ettiruvchi hikoyalari ustida qisqacha to'xtalib, bugungi dars mavzusi A. Qahhorning **“Dahshat”** hikoyasi ekanligini e'lon qiladi.

**Yangi mavzu bayoni:** Abduila Qahhor **“Anor”**, **“Bemor”**, **“O'g'ri”**, **“Dahshat”** hikoyalari orqali o'tmishdagi hayotni, undagi inson sha'nini xo'rlovchi, kamsituvchi omillarni ko'rsatib o'tadi. Yozuvchining mahorat bilan yozilgan hikoyalardan biri **“Dahshat”** hikoyasidir.

**“Dahshat”** hikoyasining o'tmish haqidagi boshqa hikoyalardan farqi shundaki, adib adolatsizlik va tengsizlik qurbonlaridek o'jiz, notavon odamlarni emas, balki o'z haq-huquqi, erki uchun jur'atsizgina bo'lsa-da, kurash yo'lga kirgan ayolni - Unsinni hikoya qahramoni qilib olgan.



Unsin taqdir taqozosi bilan Olimxon dodhohga yyettita xotin ustiga sakkizinchisi bo'lib tushadi. U turmush o'rtog'iga sevimli yor bo'lib, taqdirda bori shu ekanda, deb yashayverishi mumkin edi. Biroq Unsinning “O'g'ri”dagi Qobil bobo, “Anor”dagi Turobjon, “Bemor”dagi Sotiboldidan farqi shuki, u mutelik asirasi va jaholat qurboni bo'lib yashashni istamaydi. U o'zi tug'ilib o'sgan uyiga - Ganjiravonga ketishni, bu uydan qutulishni istaydi. Dodhoh Unsinning rozi bo'lishi mumkinligiga ishonqiramay bir shart qo'yadi: “Yaxshi, sen aytgancha bo'lsin, uyingga qaytasan, biroq avval tunda qabristonga borib bir topshiriqni bajarib kelasan”. Bu topshiriq tunda qabristonga borib suv qaynatib, choy damlab kelish edi. Yoshgina kelinchak uchun bundan ham qo'rqinchli, bundan ham dahshatli ish bo'lishi mumkinmi? Biroq Unsin o'z erki, haq-huquqini qo'lga kiritish ilinjida bu shartni bajonidil qabul qildi. Chunki Unsin uchun bu xonadon qabristondan ham xunukroq va dahshatliroq edi. Ha, Unsin ana shu zindondan qutulish uchun kurashdi va bu yo'lda qurbon bo'ldi.

Ganjiravonga uning o'zi emas, balki tobuti bordi. Bu hikoyani o'qir ekanmiz, Unsinga, uning erta xazon bo'lgan umriga achinamiz va o'tmishdagi adolatsizliklar-dan nafratlanamiz. Unsin halokatidagi dahshat yoxud fojia oddiygina fojia emas, erkinlik va hurlik yo'lidagi pokiza qalb istagi amridagi fojiadir.

**2. “Aql charxi” usuli.** Bu usulda mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

**I guruhga:**

1. Unsin nima uchun qabristonga borib, u yerda choy qaynatib kelishga rozi bo'ladi?

**Javob:** Dodhoh eshigidan butunlay ketish evaziga.

2. Unsin qayta-qayta takrorlab, o'zidagi qo'rquvni haydashga harakat qiigan va bitta odamchalik yuragiga quvvat bo'la olgan so'zlarni ayting.

**Javob:** “ O'likning joni yo'q”.

3. “Sag'ana” so'zining ma'nosi?

**Javob:** Qabr ustiga qurilgan maqbara.

**II guruhga:**

1. Unsin qabristonda nimasini unutib qoldiradi?

**Javob:** Paranji-chimmatini, bir poy kovushini, qumg'onini.

2. Unsinga nima uchun dastlab qabriston unchalik dahshatli tuyulmaydi?

**Javob:** Tiriklar qabristoni bo'lgan dodhoh dargohining dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasi, dugonalarini ko'rish umidi uning boshi-ga hech qanday yomon fikrni yo'latmas edi.

3. “Dodhoh” so'zining ma'nosi?



**Javob:** Ariza qabul qiluvchi amaldor, mingboshi.

### **III guruhga:**

1. Unsinning: “Arziydigan narsa bo'lsa borar edim”, -deganidan g'ashi kelgan dodhoh qabristonga borib kelish uchun qancha narsa taklif etadi?

**Javob:** Oldin o'nta, keyin yuzta qo'y va yarim davlatini berishni.

2. Unsinning vafotidan keyin dodhohning birinchi xotini, Unsining eng yaqin insoni Nodirmohbegim qanday yo'l tutdi?

**Javob:** U dodhohning eshigini tark etdi.

2. “Yelpishtovoq” so'zining ma'nosi nima?

**Javob:** Don yelpishga mo'ljallangan katta yassi tovoq.

3. **“Debrifing”** usuli. O'qituvchi darsni yakunlashdan oldin o'quvchilarga “Hikoya sizga yoqdimi?” - degan savol bilan murojaat etadi va “Debrifing” jarayonida maqsadga erishganlik darajasi tahlil qilinadi, dars mavzusi xulosalanib, o'quvchilar hikoya haqidagi fikrlarini bildiradilar.

#### **“Debrifing” bosqichlari:**

I bosqichda faktlarni aniqlaydilar. (*Nima sodir bo'ldi?*)

II bosqich - sabablar tahlili. (*Nega shunday bo'ldi?*)

III bosqich - harakatlarni rejalashtirish. (*Nima qilsa, shunday bo'lmas edi?*)

**I bosqich - nima sodir bo'ldi?** Kuzak shamoli juda qattiq esib, darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatib tebratdi va shamol ta'sirida uchgan bo'yra darchaga kelib urildi. O'sha bo'yra sabab qabriston haqidagi suhbat boshlanib ketdi. Dodhohning katta xotini Nodirmohbegim yuragi yorilib o'lgan yigit haqida hikoya so'zlaydi. Bu hikoyadan keyin Unsinning kundoshiga aytgan gaplarini dodhoh eshitib qoladi va uning maqsadi nimaligini bilib oladi. Unsin uchun davlat kerak emas, shuning uchun u dodhohning shartiga ko'nadi va tavakkal qilib qabristonga yo'l oladi. Unsinning naqadar jasoratli ekanligini tuban hayotdan qutulish uchun o'zida jur'at topa olgan-ligida ko'ramiz.

**II bosqich - sabablar tahlili.** Ayollarning inson sifatidagi xohish-istaklari, orzu-armonlari bilan dodhohning zarracha ishi yo'q, go'yo ular dodhoh uchun bir buyum kabi edi. Shu sabab yoshgina juvon Unsin o'zicha isyon ko'tardi. U o'z qadr-qimmatini, insoniylik sha'ni uchun jonidan kechishga-da, tayyor bo'lib, o'zining ruhan ozod va ma'naviy jihatdan dodhohlarga qaraganda bir necha baravar baland ekanligini ko'rsatdi.

**III bosqich - harakatlarni rejalashtirish.** Hikoyaning bunday fojiali tarzda yakunlanishiga avvalambor o'sha davrdagi muhit, ota-onalarning ma'naviy jihatdan qashshoqligi bois qizlarini juda erta turmushga berishi, dodhoh singari zulmkor, qabih kishilarning ayollarga bo'lgan past nazari hikoyaning shunday yakunlanishiga sababdir.

O'qituvchi dars yakunida ayol dunyodagi eng mo'tabar zotligini, bugungi kunda ayollarimizga ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor buning ifodasi ekanligini, bugun ayollar nafaqat oilada, balki jamiyatda ham o'z o'rinlariga ega ekanligini aytib o'tadi.

**Baholash va rag'batlantirish:** Dars davomida o'quvchilar yig'gan guldondagi gullarga qarab g'olib guruh aniqlanadi. O'quvchilar esa darsdagi ishtirokiga ko'ra baholanadilar.

**Uyga vazifa:** O'quvchilarga hikoya qahramonlaridan birini tanlab, shu timsol haqida mulohazalarini yozib kelish topshiriladi.

Adabiy ta'limda o'quvchilarning asar yuzaidan mustaqil fikr yuritishlari, zaruriy xulosaga kela olishlari juda muhim sanaladi. O'quvchi badiiy asar matni bilan tanishar ekan, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga befarq qolmasligi, asar timsollarining xati-harakatlariga xolis munosabat bildira olishi; badiiy timsollarning voqealar tasviridan keyingi hayoti, turmush tarzi – istiqboli to'g'risida ham bashorat qila olishlari, shubhasiz, badiiy asarning kitobxon qalbidagi “ikkinchi umrini” ta'minlaydi, o'quvchining badiiy idroki shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 17-maktab o'qituvchisi Shahloxon Mahkamova “Til va adabiyot ta'limi” jurnalining 20011-yil № 4 - sonida berilgan “Abdulla Qahhor ijodini o'rganish tajribasidan” nomli metodik maqolasida adib hayoti va ijodini o'rganishning quyidagi usulini tavsiya etadi.

Taniqli o'zbek adibi Abdulla Qahhor ijodidan namunalar ilk bor umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida «Bemor» hikoyasi, so'ngra 7-sinfda “O'g'ri” va “Dahshat” hikoyalari misolida o'rganish uchun taqdim etilgan. Dasturda bu hikoyalarni o'rganishga uch soat rejalashtirilgan bo'lib, biz uning bir soatini “O'g'ri” ga, ikki soatini “Dahshat”ga ajratdik. Biografik ma'lumotga alohida soat ajratilmadi, chunki o'quvchilar yozuvchining hayoti va ijodi bilan 5-sinfda ma'lum darajada tanishganlar. 7-sinf darsligidan o'rin olgan adib haqidagi ma'lumotni o'tgan mavzu - Cho'lpon ijodini o'rganishga bag'ishlangan darsning oxirida uy vazifasi sifatida topshirdik. Biz “Dahshat” hikoyasini o'rganishga ajratilgan darsni boshlashdan avval darstaxtaga *“O'zining qalbida biror uchqun bo'lmasa, ustoz qiyosh bo'lsa hamki, undan yorug'lik chiqmog'i gumon”* hikmatini shior, epigraf shaklida yozib qo'ydik.

**Darsning maqsadini:** o'quvchilarning Abdulla Qahhor hayoti, ijodi, hikoyalari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash; ularni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi, bir-birini hurmat qilishiga

yo'naltirish, qalblariga vatanga muhabbat g'oyalarini singdirish; asar qahramonlariga xos bo'lgan ijobiy yoki salbiy xislatlarni farqlashga yo'naltirish orqali o'quvchining fikrlash, yaxshi-yomonni ajratish, hozirjavoblik sifatlarini o'stirish tarzida belgiladik.

Abdulla Qahhorning portreti, adib haqida ma'lumotlar yozilgan fayl-papka, hikoyalari to'plami, yozuvchi haqida zamondoshlarining xotiralari, testlar va tarqatmalarni *darsning jihozi* sifatida tayyorladik. Darsni savol-javob, suhbat usulida tashkil etdik.

Avval o'quvchilarning Abdulla Qahhor shaxsi va ijodi haqida qancha bilimga ega bo'lganliklarini aniqlash maqsadida **“Kim zukko” o'yinini** o'tkazdik. O'yinda hamma o'tirgan yeridan javob beraverishini, bir boshdan A.Qahhor haqida kim nima bilsa shularni aytaverishini, lekin bir marta aytilgan ma'lumot qaytarilmasligi kerakligini malum qildim. To'xtab qolgan o'quvchi o'rnidan turadi. Oxiri 6 ta o'quvchi qolguncha o'yin davom yettiriladi. (O'quvchilar o'yinda maroq bilan ishtirok etdilar. Oxirgi 6 ta o'quvchiga 5 balldan baho qo'ydik).

Jurnaldan bahosi kam to'rtta o'quvchini chaqirib, 5 ta (2tasi darslikdan) savolli test berildi. Ular testni yechgunlaricha Kibriyo Qahhorovanning xotiralaridan gapirib berdik: *“A.Qahhor o'ta nozikta'b, madaniyatli odam edilar. A.Qahhorning talabchanligi sabab bo'lib, men Lev Nikolayevich Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasi tarjimasiga jur'at etdim. Domla ikkita yon daftar tutar edilar. Biri umumiy daftar bo'lib, bunga ayrim so'zlar, iboralar, tasvirlar, turli-tuman, voqea-hodisalar, adabiyot haqidagi o'ylar yozilardi. Oramizda faqat bitta kelishmovchilik bor edi: i mendan keyin o'lishni, men undan keyin o'lishni istamas edim. Abdulla Qahhor maqtovga xasis edilar. Shogirdlaridan birontasining yelkasiga qoqib, “falon asarni boplabsan, senga qoyilman!” deganlarini eshitganim yo'q”*.

Biz o'quvchilarning kitobxonlik darajasini aniqlash va kitob o'qishga moyilligi bor o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida “Kim A.Qahhor haqidagi mana shu kitobning nomini aytib bersa, ushbu kitobni unga sovg'a qilamiz”,- dedik. Birinchi bo'lib kitobning nomini, unda nima haqida gap ketishini aytgan o'quvchiga “Chorak asr hamnafas” kitobini dastxat bilan sovg'a qildik. Shundan so'ng test yechgan o'quvchilarning ham bilimini baholandi va endi “Dahshat” hikoyasini o'qishga o'tishimizni aytdik.

Hikoyani o'qib bo'lganimizdan so'ng darslikdagi savol-topshiriqlar ko'magida uning tahliliga kirishdik. Gap shundaki, darslikda asar matnidagi o'quvchining e'tiborini qaratish lozim bo'lgan har bir detal savol-topshiriqqa aylantirilgan. Buni darslikning yutug'i sifatida e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari, bu savol-topshiriqlar o'qituvchi va o'quvchining dars jarayonidagi ish faoliyatini ham bir tizimga solib beradi. Darslik bilan bu tariqa ishlash, avvalo, o'quvchilarni matn mazmunini qayta hikoyalashdan to'xtatadi, qolaversa, ularni badiiy matn bilan ishlashga, asardagi muhimni nomuhimdan farqlashga, insonni fazilatlariga asoslangan holda to'g'ri

baholashga o'rgatadi. O'quvchilar savol-topshiriqlar ko'magida Unsin, Olimxon dodxo, Nodirmohbegim timsollariga o'z imkoniyatlari doirasida tavsif berdilar. Xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda shaxsini baholadilar.

Uyga vazifa sifatida o'quvchilarning qo'liga A.Qahhorning quyidagi o'gitlari yozilgan kartochkalarni tarqatdik: “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas”, “Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi”, “Hayot magnit - o'ziga tortadi. Yozuvchi shu magnitni o'ziga yuqtira olsagina o'ziga torta oladi”, “Bir asarni o'qiyotib: men bu kitobni ne mashaqqatlar bilan, do'ppimni hidlab-hidlab o'qidim”, “Semiz kitobning yuragi yaxshi tepmaydi”, “Xomsemiz asar ustidan asfalt qiladigan mashina o'tkazish kegak”, “Ilhomsiz, ehtirossiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi. Guli bor. Lekin mevasi yo'q”, “Yozuvchilikning boshqa hunarlardan farqi - yozuvchi o'zini o'zi operatsiya qiladi: yozganini qisqartirib tashlay oladi”, “Gap qancha yaxshi bo'lsa, shuncha qisqa bo'ladi”, “Yozuvchining mahorati shundaki, butun banorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera oladi”. Shu hikmatlarni aqlari yetganicha sharhlab kelishni topshirdik.

Ikkinchi topshiriq sifatida: “A.Qahhor og'zidan chiqqan har bir ibora chuqur mantiqiy, tagdor, obrazli bo'lar edi. Yosh yozuvchilardan ham shuni talab qilar edilar: “So'zni mix qilib qoqib, qalpog'ini yulib tashla, birov sug'urib ololmasin”, degan edi i suhbatlardan birida. Ustoz ulug' rus yozuvchisi A.Chexovning “Qisqalik - iste'dod singlisi” degan iborasini juda e'zozlardilar. Suhbatlarning birida u “Bemor” hikoyasining birinchi jumlasini qanday yozganini, 30 da yaqin varaqni qoralab, nihoyat eng qisqa, eng aniq ifoda topganini aytib bergan edi: “Sotvoldining xotini og'rib qoldi”. Ustozning “Mahalla» hikoyasiga mening to'rt satr she'rim epigraf qilib olinganidan hali ham boshim osmonga yetadi” misralari kimning qalamiga mansubligini aniqlashni berdik.

Kuzatganimiz, bir qator adabiyot o'qituvchilarining Abdulla Qahhor ijodini, uning “O'g'ri”, “Dahshat”, “Bemor” hikoyalarni o'rganish yuzasidan tavsiya etayotgan metod va usullari rang-barangligi, keng qamrovliligi bilan “yarq” etib e'tiborimizni o'ziga jalb qilsa-da, shakliy ustunlikning yuqoriligi, asosiy ob'ekt – asar matnidani uzoqlashish holatining etakchiligi, tavsiya etilayotgan metodlar qo'llanayotgan darslar ko'proq sahna tomoshalarini eslatishi, darsning ilmiylik tamoyili biroz “parda ortida qolib”, usullar tovlanishining ustuvor bo'lishi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish, darsni mustahkamlash, badiiy tafakkurini shakllantirish maqsadida berilayotgan savol va topshiriqlarning aksariyati faktologik xarakterga ega ekanligi, garchi adibning hikoyalari o'rganilayotgan bo'lsa ham biror o'rinda o'quvchilarga hikoya janri haqida nazariy bilimlar berishning ko'zda tutilmagani kabi

etishmovchiliklarga (xato va kamchilik soʻzini qoʻllashni joiz topmadik) boyligi bilan eʼtirozlarimizga sabab boʻladi. Albatta, dars –muqaddas jarayon. Uni tashkil etish, oʻquvchilarni qiziqtirish, maqsadga erishish oson kechmaydi. Bu borada oʻqituvchilarimizning tutgan yoʻllarini, qoʻllagan metod va usullarini eʼtirof etib, amaliyotda keng qoʻllanishini tavsiya etamiz, metodik tavsiyalar berayotgan oʻqituvchilarimizga hurmatimizni izhor qilamiz.

Bizningcha, dars jarayonida oʻquvchi va oʻqituvchi shaxsining oʻrni modulatsiya qilinib turiladi: oʻqituvchi – subʼekt, oʻquvchi – obʼekt, isteʼmolchi; oʻquvchi – subʼekt, oʻqituvchi – kuzatuvchi, nazoratchi. Yangilangan pedagogik tafakkur oʻquvchi shaxsini koʻproq subʼekt, jarayonning faol ishtirokchisi, “kashfiyotchi”si sifatida boʻy koʻrsatishini; loqayd, beparvo, eʼtiborsiz tinglovchisi boʻlmasligini istaydi va bu yoʻlda qatʼiy harakat qiladi.

Abdulla Qahhor ijodini oʻrganish darslari oʻtmish bilan bugun oʻrtasidagi koʻprik; hayot dinamikasining badiiy tasviri; soʻz qudratining yorqin ifodasi; hayot, yashash suratining asl oq-qora inʼikosi; fikrlar, mushohadalarga turtki beruvchi botiniy qudrat; bugunning shukronasini teran tuyish uchun maʼnaviy ibrat, maʼrifiy ozuqa sifatida baholanishi, his etilishi, voqelanishi juda muhimdir.

Adabiy taʼlimda oʻquvchini, Abdulla Qahhor asarlarini (bu oʻrinda taʼkidlash joizki, oʻrganishga tavsiya etilayotgan barcha adiblarimiz asarlarini) oʻrganishga kirishar ekan, har bir gap birikma soʻz qatiga yashiringan sirdan voqif boʻlishga, uni idrok qilishga; hissiy taʼsirlanishga, mushohada yuritishga oʻrgatish asosiy vazifalardandir.

“Bemor” hikoyasi tahliliga kirishilar ekan birinchi jumlaning oʻziyoq oʻquvchi tafakkuriga turtki berishi lozim – *Sotiboldining xoti ogʻrib qoldi*. Hamma narsa, voqea shundan boshlandi. Sotiboldining xotinini ogʻrib qolishi – bu oila tanazzulining muqarrarligi, bu oʻzi halovatsiz oʻtayotayotgan kunlarning yanada faysiz, halovatsiz boʻlishi; ruhiy azoblarning avjga minishi; “Osmonning yiroq, erning qattiq boʻlishi”; adoqsiz maʼnaviy qiynoqlar, moddiy tahqirlanishlarning yanada palak otishi. Oʻquvchilar agar shu birgina jumla ortida shuncha “yuk” borligi his qilsalar, idrok qila bilsalar, muhimi, undan zaruriy xulosalar yasay olsalar shubhasiz, katta yutuq qoʻlga kiritilgan boʻladi. Oʻquvchi asar yakunida oʻzi uchun zaruriy sanalgan talablar tizimini ishlab chiqadi: doimo sogʻlom boʻlishga intilish kerak, sogʻlom turmush tarzi – farovonlik garovi, sport bilan shugʻullanish zarur; zararli odatlarga (ichish, chekish) koʻnikma hosil qilmaslik kerak, sogʻligim- boyligim, uni avaylab-asrash oʻz qoʻlimizda...

Adabiy taʼlimda innovatsion metodlardan foydalanish oʻqituvchilar-ning pedagogik tajribasi, metodik mahoratiga koʻp jihatdan bogʻliqdir.

### **2.3. Abdulla Qahhor asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'llari**

“Mafkuraviy immunitet” tushunchasini birinchi bor Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlatilgan va unga shunday ta'rif berganlar: “Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning “da'vati” ham, axloq va odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi”<sup>1</sup>.

Immunitet – lotincha “immunutas” so'zidan olingan bo'lib, biror narsadan xalos va forig' bo'lishni, muayyan kasallikni qo'zg'atuvchi virusga, dardga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini(masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. shuningdek, u daxlsizlik ma'nosini ham anglatadi (masalan, deputatlik immuniteti, diplomatik immuniteti ).

Sog'lom immunitetga ega bo'lmagan odam sog'lom e'tiqod va dunyoqarashdan ham mahrum bo'ladi. Unday kishilar yaxshi bilan yomonning, do'st bilan dushmanning farqiga bormaydi. Xalq va Vatan manfaatlari ular uchun mutlaqo begona.

Aqlli va odobli bolaning qulog'ida ota-onasi, ustozlarining pand –nasihatlarini yangrab turganidek, ma'naviy immuniteti kuchli bo'lgan odamning qalbidan Vatani va xalqining mehri

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent , “Ma'naviyat” nashriyoti , 2008-yil,120-bet.

quyoshdek porlab turadi. Ana shu mehr insonni faqat ezgu ishlarni, ona diyorining ravnaqi, el-u yurtning baxt-u saodatini o`ylab yashashga undaydi. Binobarin, yomonlikka qarshi nafrat, yaxshilikka nisbatan muhabbat va xayrixohlik, kindik qoni tomgan qadrdon zaminga fidoiylilik-ma`naviy immunitetning asosiy belgilaridir. Prezidentimizning quyidagi ogohlantiruvchi so`zlarini eslash maqsadga muvofiqdir: “shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma`naviyatiga qarshi yo`naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo`lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko`zga ko`rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo`lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”<sup>1</sup>.

Mafkuraviy immunitetning asosiy xususiyatlari ogohlilik, fikrga qarshi fikr, g`oyaga qarshi g`oya, jaholatga qarshi faqat ma`rifat bilan kurasha olish ko`nikmasidir. Bu tamoyillarni Prezidentimiz e`tirof etgani hech kimga sir emas.

Mafkuraviy immunitetning muhim shartlaridan biri ma`rifatdir. Chunki ma`rifatli odam faqat bilim asosida yashaydi, har bir masalaning mohiyatini bilishga, har bir harakatini bilim asosiga qurishga intiladi. U yolg`onga, yomon oqibatlar keltirib chiqaruvchi axborotlarga, soxta g`oyalarga emas, haqiqatga, oxiri ezgulik sari chorlaydigan ma`lumotlarga, asl qadriyatlarga xizmat qiladi, umrini, hayotini shu yo`lga bag`ishlaydi. Ma`rifatli, ilm izlab, ezgulikka intilib yashaydigan insongina barkamol bo`lishi mumkin. Chunki uning hayotdagi har bir qadami komillik sari tashlangan qadamdir. Mamlakatimizda ta`lim tizimida oshirilayotgan ulkan ishlar, xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirish, pedagogik faoliyatni rivojlantirish, pedagogik mahorat va malakalarni yuksaltirish, oxirgi va zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanishni barcha joylarda joriy etish, o`qitilayotgan kitob va darsliklarni zamon talabiga mos ravishda tayyorlanishi, darsdan keyingi mashg`ulotlarni doimiy nazorati, o`quvchi yoshlarning bo`sh vaqtlarini unumli sarf etgan holda, foydali mehnatga safarbar etish, sog`lom avlodni tarbiyalash borasida qilinayotgan sa`y-harakatlar – barchasi bilimli, ma`rifatli va ongli insonni voyaga yetkazishga qaratilgani bilan ayniqsa e`tiborlidir.

Bilimli odam soxta mafkuraviy oqimlar va boshqa shakldagi zararli ta`sirlarga berilmasdan, insoniyatning tarixiy tajribalari, eng avvalo, o`z ajdodlarining an`analari yo`lidan boradi, har qanday jozibali g`oyalar bilan niqoblanmasin, jaholatning asl mohiyatini anglab, unga qarshi ma`rifat bilan kurashadi. Bundan ma`lum bo`ladiki, o`sib kelayotgan yosh avlodda ma`naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Adabiy ta`limda Abdulla Qahhor asarlarini o`rganish orqali o`quvchilarda ma`naviy-ma`rifiy immunitet hosil qilishga alohida e`tibor beriladi. Ma`naviy tozarish, ruhiy poklik,

---

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma`naviyat” nashriyoti, 2008-yil, 115-bet

komillikka intilish – bu ma’naviy immunitet hosil tushunchasini to‘la ifodalaydi. O‘quvchi “O‘g‘ri” hikoyasi bila tanishar ekan ellikboshi, amin, pristav kabi hukumat vakillarining Qobil boboga qilgan nomaqbul, qo‘pol, masxaromuz muomalasidan qattiq ta’sirlanishi, o‘kinishi tabiiy. Bunday dilxiralik sababi idrok etilar ekan, o‘quvchida muomala madaniyati, insonlar bilan samimiy muloqot qilish, ochiqyuzlik, shirinso‘zlik, o‘zaro hurmatni saqlash fazilatlarini shakllana boradi. Nochor holatga tushgan Qobil boboga yordam berish o‘rniga uni battar qiynoqlar girdobiga otadigan, bor-yo‘g‘ini tortib olib, o‘zini xonavayron qiladigan nopok kimsalar nafratlanish tuyg‘usi o‘quvchida insoniylik, odamiylik fazilatlarini shakllanishiga ham sabab bo‘la bo‘ladi. O‘quvchi ruhiyatidagi poklikka tashnalik, odamiylikka intilish – ezgu fazilatlarga ega bo‘lish maqsadining sobitlashuvi, shubhasiz, axloqsizlikka, ma’naviyatsizlikka qarshi immunitetdir.

Abdulla Qahhor asarlarida ko‘proq o‘tmish tasviri pardozsiz, oq-qora ranglarda aniq tasvirlanadi. O‘quvchi o‘tmish bilan aloqa bog‘lar ekan bugunning qadrini, shukronosini ongli idrok qila boshlaydi. Bu juda muhimdir. Ezgu ishlarga kamarbasta bo‘lish, fidoyilik, ilmsevarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularing shakllanib, kamolga etishi – mafkuraviy immunitetning mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, Abdulla Qahhorning juda ko‘p “tesha tegmagan”, qaroqi fikrlari, so‘zlari kitobxonlar orasida hikmatlarga, iboralarga aylanib ulgurgan. Adabiy ta’limda, til ta’limida adib hikmatlaridan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy-ma’rifiy sifatlarini oshirishga xizmat qiladi. “Abdulla Qahhor hikmatlari”<sup>1</sup> nomi ostida Asror Samad tomonidan tuzilib, chop etilgan kitobcha kitobxonlarga hayot haqiqatlaridan saboq beradi, ruhiy quvvat bag‘ishlaydi. O‘qituvchi hikmatlar bilan o‘quvchilarini tanishtiradi; tahlil, munosabat bildirishlar o‘quvchilarda ma’naviy-ma’rifiy immunitetni yanada shakllantiradi.

Hikmatlardan namunalar:

- Yurtdan chiqish tiriklay go‘rga kirish degan so‘z;
- Uyingni o‘g‘ri bossa, o‘g‘lingni andiqqa solib qo‘yib, qo‘shningni chaqirmaysan;
- Yurti obod qilaman degan kishi o‘zi obod bo‘ladi.
- Inson hamma erda ulug‘... Uning ulug‘ligi qo‘lidan kelgan ishlarda, yaratuvchiligida ko‘rinib turadi;
- Odamning odamga aksi uradi;
- Shunday odamlar bo‘ladiki, tug‘ilganda hech kim sevinmagan bo‘lsa ham, o‘lganda butun yurt aza tutudi;

---

<sup>1</sup> Asror Samad. Абдулла Қаҳҳор ҳикматлари. – Т.: “Ўзбекистон”. 1990.



- Yuragida qo‘ri bor odamning qo‘llari ham issiq bo‘ladi;
- Gapni tonnalab olingu, grammlab soting;
- Toshqin suv tegirmonni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham;
- Olamga eshikning tirqishidan qarash kerak emas;
- G‘araz bilan qilingan yaxshilik yomonlikdan farq qilmaydi;
- Palag‘da tuxumga murch sepib bergan bilan uni eb bo‘lmaydi;
- Baxtni birovlarning ostonasidan qidirishning o‘zi baxtsizlikning boshi.

**Xulosa.** Adabiy ta‘lim asosini adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi. Har qanday pedagogik faoliyatga kirishishdan oldin *kimni? nima uchun? nimani?* degan savollarga javob berish zarur. *Kimni?* savoli pedagogik faoliyatning maqsadini, *nima uchun?* savoli vazifasini, *nimani?* savoli o‘qitishning mazmunini belgilab beradi<sup>1</sup>.

**Komil shaxsni shakllantirish** adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi. Bu umumiy tushuncha bo‘lib, istiqbolni belgilaydi (ya‘ni kimni? o‘qitiladi).

**Oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchini tayyorlash**, bolalarni badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning josibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o‘qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o‘ziga xulosa chiqarishga qobil, o‘z qarashlarini og‘zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o‘qishni o‘zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi. Bu tushuncha xususiy bo‘lib, joriy faoliyatni belgilaydi (ya‘ni nima uchun? o‘qitiladi).

**Nimani?** o‘qitilishi lozimligi to‘g‘risidagi **ta‘lim mazmuni** o‘quvchilarga beriladigan bilim va singdiriladigan amaliy ko‘nikmalar **direktiv hujjatlar** (Lotincha so‘z bo‘lib, yuqori rahbar organlar tomondan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo‘l-yo‘riq, dastur, ko‘rsatma), darslik hamda qo‘llanmalarda aks yettiriladi.

Istiqbol har bir sohaga yangicha fikrlashni, yuksalishni, taraqqiy etishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Bu narsa ta‘lim jarayonida ham ijobiy o‘zgarishlar, islohotlar, yuksalishlar bo‘lishiga olib keldi. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida

---

<sup>1</sup> Qodirov V. Adabiyot o‘qitish metodikasi. //ma‘ruza matnlari //. – Andijon. 2010. 15-bet.

soʻzlagan nutqida taʼlimni taraqqiy yettirish toʻgʻrisida shudgay xitoblar yangraydi: “Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat erosti va erusti boyliklari bilan, balki, birinchi navbatda, oʻzining yuksak maʼnaviyati bilan kuchlidir...”, “...Tarbiyachilarning oʻziga zamonaviy bilim berish, malakasini oshirish kabi pasalga solib boʻlmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz...”, “Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos boʻlmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga oʻrgatolmaymiz, axir...”, “...Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrladigan etib tarbiyalanadi...”<sup>1</sup>.

Respublikamiz taʼlim-tarbiya tizimida borayotgan tub islohotlar jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi boʻlmish “Taʼlim toʻgʻrisidagi Qonun” (1997 yil 29 avgust), “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997 yil 29 avgust), Respublika Prezidenti-ning farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar oʻquv predmetlari boʻyicha davlat taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari hamda boshqa oʻquv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etib, taʼlimni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda.

Bu narsa adabiy taʼlim jarayonini ham mazmunan boyitish, yuksaltirishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Adabiyotni oʻqitish boshqa fanlarni oʻqitishdan keskin farq qiladi. Aniq fanlarni oʻqitishda oʻqituvchi oʻquvchilariga insoniyat tomonidan kashf etilgan tayyor bilimlarni oʻrgatadi. Bunda oʻquvchilar ham ortiqcha zoʻriqishlarsiz, qiynalashlarsiz tayyor bilimlarni oʻzlashtiradilar. Yana bir jihati, bunday fanlarni oʻqitish jarayonida oʻquvchilar barchasi yagona echimga, xulosaga keladilar va bu ilmiy yagona haqiqat hisoblanadi.

Adabiy taʼlim har bir oʻquvchidan oʻzgacha badiiy idrokni, asrni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishi tabiiy hol sifatida baholaydi, toʻgʻri deb biladi. Oʻquvchilar bitta asarni oʻqib oʻrganishsa-da, undan turlicha hissiy taʼsirga, quvvatga ega boʻladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar.

Oʻquvchilarning badiiy tafakkurini oʻstirishda; badiiy asarlar, ayniqsa, hikoya janrining imkoniyatlarini toʻliq ochib berilishida; soʻz sehri, qudratini teran his qilinishida; hayotning asl suratini – badiiy talqinini oʻqib, zaruririy xulosalar hosil qilinishida; oʻtmish bilan bugun oʻrtasidagi taraqqiyot darajasini muqoyasa qilinishida; fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini oʻrganib, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirilishida; oʻquvchining olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, shubhasiz, abdulla Qahhor asarlarining ham alohida oʻrni, mavqei bor.

Adabiy taʼlim amaliyotida Abdulla Qahhor asarlarini: hikoya, qissa va romanlarini oʻrganish yuzasidan juda boy pedagogik tajriba toʻplangan, ommalashtirilgan. Bir qarashda, adib

---

<sup>1</sup> Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т. “Шарқ”. 1997. 4-10 бетлар.

asarlari o'rganish yuzasidan aytilmagan fikr, tavsiya etilmagan metod yoki usulning o'zi qolmagandek. Chindan ham, Abdulla Qahhor asarlari o'zbek adabiy ta'lim jarayonida uzoq yillardan beri o'rganilmoqda, o'rgatishning yangi-yangi qirralari kashf etilib, keng o'qituvchilar jamoasiga amaliy foydalanish uchun tavsiya etilmoqda.

Shunday bo'lsa-da, aytish mumkinki, Abdulla Qahhor asarlarini o'rganishda hali yechimini kutayotgan bir qancha muammolar yo'q emas.

Masalan:

1. Adib asarlari matni ustida ishlashning istiqbolli ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish.
2. Abdulla Qahhor hikoyalari misolida hikoya janri tadqiqini yangi pog'onaga yuksaltirish.
3. Abdulla Qahhor asarlari orqali o'quvchilarning fikrlash quvvatini oshirish, so'zdan foydalanish uquvini, shakllantirish, mustahkam-lash, badiiy tafakkurini o'stirish.
4. Abdulla Qahor asarlarini o'rganishning innovatsion metod va usullari tizimini ishlab chiqish.
5. Abdulla Qahhor ijodini o'rganish yuzasidan yangilangan uslubiy qo'llanmalar yaratish.

Abdulla Qahhor ijodini o'rganishga yangicha yondashuv maqsadi yo'lida olib borgan kichik tadqiqotimizni, sa'y-harakatimizni ummondan tomchi sifatida baholash mumkin. Tadqiqot, avvalo, bizda o'zimizga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamladi; Abdulla Qahhor ijodini chuqurroq tahlillash imkonini yaratdi; adabiy ta'lim jarayoni haqidagi bilimlarimizni boyitdi; Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ilg'or pedagoglari-mizning ish tajribalaridan bahramand etdi; hikoya janrining cheksiz imkoniyatlarini kashf qildik; o'quvchilar jamoasi bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qildik; maktab hayotiga, ta'lim berish jarayoniga kirib bordik; elkamizga og'ir va sharaflilik kasbiy mas'uliyat yuklanayotganini teranroq his qila boshladik; o'zimizda ijodkorlik, tadqiqotchilik, ilmga, izlanishga chuqurroq mayl, istak – maqsad tuydik; kelajak pedagogik faoliyatimizda oddiy, bir maromda tebranuvchi o'qituvchi bo'lib emas, aksincha, tinimsiz izlanadigan, olg'a intiladigan, ilmga boy, metodik tajribaga hisobsiz o'qituvchi bo'lish maqsadi qat'iy qaror topdi; eng muhimi, bizlarga nazariy, amaliy saboq bergan ustozlarimizning mehnatlari zoe ketmaganini o'zimiz misolimizda idrok etdik; dillarimizni g'urur, shunday yurtda yashash baxtidan shukronalik, o'qituvchi degan sharaflilik, muqaddas nomga hamisha munosib bo'lish kabi pokiza tilaklar, ezgu maqsadlar egalladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### I

- 1.1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – T: 1997 yil, 20-29-betlar.
- 1.2. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – T: 1997 yil, 31-60-betlar.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni "Ta'lim va tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida". – T: 1997 yil 6 oktabr.
- 1.4. Barkamol avlod orzusi.-T: Sharq,1999 yil.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining AXBOROTNOMASI, 1-maxsus son, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. –T: Sharq, 1999 yil.
- 1.6. Barkamol avlod orzusi. - T: O'zbekiston, 2010.
- 1.7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 556-bet.
- 1.8. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T: ma'naviyat, 2011.
- 1.9. Karimov I. A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy yettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" // "Ma'rifat" gazetasi, 2012 yil. №14, 1-bet.

## II

- 2.1. Adabiyot nazariyasi. 2jildlik / akademik M.Nurmuhamedov tahriri ostida. - T: fan, 1978, 1979.
- 2.2. Adabiyot o'qitish metodikasi./A.Zunnunov, n. Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlar hammuallifligida. -T: O'qituvchi, 1992 yil.- 202-203b.
- 2.3. Adabiyotshunoslikka kirish. / T.Boboiev- qo'llanma.-T: O'qituvchi, 1979.
- 2.4. ADABIYOT. 5-sinf uchun darslik-majmua.-T: "SHARQ", 2011. 45-b.
- 2.5. ADABIYOT. 6-sinf uchun darslik-majmua-T: "Manaviyat", 2009, 111-b.
- 2.6. ADABIYOT. 7-sinf uchun darslik-majmua. -T: SHARQ, 2009. 304-317-
- 2.7. Vatan adabiyoti 9-sinf. -T: "O'qituvchi", 1993.
- 2.8. O'zbek adabiyoti 11-sinf uchun. - T.: "O'qituvchi", 1993.
- 2.9. ADABIYOT Akademik litseylarning III bosqich o'suvchilari uchun . - T. "Cho'lpon" 2010.
- 2.10. Abdulla Qahhor hikmatlari. -T: O'zbekiston, 1990.
- 2.11. Abdurahmonova S. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish usullari. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2012, № 6, 13-18-betlar.
- 2.12. Hamraqulova X. "Sarob" romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o'rganilishi. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2002, № 4, 53-58-betlar.
- 2.13. Mahkamova SH. Abdulla Qahhor ijodini o'rganish tajribasidan. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2011, № 4, 11-14-betlar.
- 2.14. Mirzarahimova M. 7-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2006, № 2, 9-19-betlar.
- 2.15. Matjonov S., Saidmurodov X. Ulug' adib ijodini o'rganishda oshkora muloqot. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 1910, № 10, 16-17-betlar.
- 2.16. Nurmatova M. "Uch avlod Abdullasi" // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 1993, № 2, 23-25-betlar.
- 2.17. Nurmatova G. 6-sinfda Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasini o'rganish. // "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2010, № 3, 15-20-betlar.
- 2.18. Umrzaqov R. "Bemor" hikoyasining struktural tahlili. // "Til va adabiyot

- ta'limi" ilmiy-metod. jurnali, 2012, № 2. 17-21-betlar.
- 2.19. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T: Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 115-bet.
  - 2.20. Ismatov S. Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish. – T: O'qituvchi. 1978.
  - 2.21. Mirzaev S. Xalq sevgan adib – T.: "O'zbekiston". 3-5-betlar.
  - 2.22. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. – T.: "Yangi asr avlodi", 2006, 94-bet.
  - 2.23. Qodirov V. Adabiyot o'qitish metodikasi. //ma'ruza matnlari //. – Andijon. 2010. 15-bet.
  - 2.24. Rahmon Qo'chqor. Men bilan munozara qilsangiz...–T.: "Ma'naviyat", 1998, 4-b.
  - 2.25. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor.- T: "Yosh gvardiya", 1988. 2-bet.
  - 2.26. Cho'lpon. Adabiyot nadir? –T.:Cho'lpon nashriyoti. 1994, 6-8-betlar.
  - 2.27. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi.–T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti". 2009, 3- 4-betlar.